VII. Marg'ilonsoy (Shohimardonsoy) irrigatsiya rayonida 11 ta yodgorlik qayd etilgan. Ular soyning har ikki tomonida joylashgan va ikkita vohadan iborat. Birinchisi Marg'ilonsoy o'rta oqimida joylashgan (№158–164). Bu guruh yodgorliklari ichida Mozortepa (№161) maydoni – 140 x 110 m.ga teng va Mugposhsho (№162) maydoni 4 ga yaqqol ajralib turadi. Mugposhsho maydoni va joylashishiga ko'ra vohaning markazi vazifasini bajargan. Ikkinchi guruh yodgorliklar 4 ta tepaliklardan (№142–143, 157, 211) iborat bo'lib, shu guruhga Pisak (№144) yodgorligini ham kiritish mumkin. Bular orasida Shaxartepa (№143), maydoni 110 x 80 m eng yirigi bo'lib, shartli ravishda uni ushbu voha markazi bo'lgan deyish mumkin. Ushbu guruhning shimoliy va g'arbiy tomonlarida deyarli yodgorliklar uchramaydi. Chunki bu irrigatsiya rayonidan so'ng vodiya Markaziy Farg'ona qumliklari boshlanadi.

VIII. Tentaksoy irrigatsiya rayonida 7 ta arxeologiya yodgorligi hisobga olindi (№54–59, 62). Ushbu yodgorliklar Qoradaryoning irmoqlaridan biri Tentaksoy xavzasida joylashgan. Bu soy Farg'ona tizma tog'larini shimoliy-g'arbiy chekkasidan bosh oladi. Uning Bozorqo'rg'ongacha bo'lgan xududlari Qoraungur nomi bilan ma'lum. Uning boshqa xududlardan farqi shundaki, bu rayonda arxeologik yodgorliklar unchalik ko'p emas. Ammo ularning maydonlari boshqa xudud yodgorliklariga nisbatan katta: mas., Janodiltepa (№58) – 16 ga, Fayziobod (№59) – 3 ga, Xauskonota (№62) – 5 ga.

IX. Norin – Qoradaryo irrigatsiya rayoni ilk o'rta asrlarda aholisi qalin joylashgan xududlardan hisoblanadi. Chunki bu rayonning suv manbalari boy, yerlari unumdor. Bu xudud Chust madaniyati aholisi tomonidan so'nggi bronza davridan o'zlashtirilgan. Ilk dexqonchilik makonlari mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragiga to'g'ri keladi. Hammasi bo'lib bu rayonda 35 ta ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar xaritada tushirildi.

Ushbu rayonga alohida to'xtab o'tish joiz. Chunki, bu rayon Farg'ona vodiysida nisbatan yodgorliklar ko'p joylashgan xudud hisoblanadi. Ular ichida shaharlar ham ko'p, ya'ni ushbu irrigatsiya rayonida 2 ta shahar, 18 ta qishloq, 1 ta qal'a, 6 ta qal'a-qo'rg'on, 5 ta uy-joy massivlari, 2 ta qabriston borligi aniqlandi (taxminan 50x30 km.li maydonda). Bu xududning V–VIII asrlarga tegishli yodgorliklar asosan uchta vohaga birlashadi. Vohalarning eng kattasi birinchi voha xududning janubiy-sharqiy tomonida u 19 ta (№21–22, 24–27, 35–39, 41–48) yodgorlikni birlashtiradi. Ikkinchisi uning shimoliy tomonida va unda atiga 2ta yodgorlik joylashgan (№60–61), uchinchi voha esa shimoliy-sharq tomonida joylashgan, unda 14 ta yodgorlik bor (№115–128). Vohaning suv manbalari Qoradaryo va Norin daryolarining irmoqlari (Qolgandaryo, Ishtirxonariq va b.) hisoblanadi. Birinchi vohaning markazi To'rtko'ltepadir (№21 – maydoni 12 ga), uchinchi voha markazi sifatida Qo'rg'ontepa (Buzulmas) faoliyat ko'rsatgan (№117 – maydoni 7,5 ga). Ikkinchi voha ularning eng kichigi bo'lib, bu xududiy birlikda shartli ajratilgan bo'lib, faqat ikkita yodgorlikgina ro'yxatga olingan.

X. Chortoq irrigatsiya rayoni 5 ta yodgorlikdan tashkil topgan bo'lib (№129–133), ulardagi aholi o'z xo'jaligini Chortoqsoydan suv olib yuritishgan. Asosiy yodgorliklar Baliqliko'l qishlog'i yaqinidagi xududda (Qo'shtepa I, II – №130) to'plangan.

XI. Poshshootasoy irrigatsiya rayonida yodgorliklar soni 7 ta (№134–140). Ular soyning chap qirg'og'i bo'ylab joylashgan. Bu rayonning eng katta yodgorligi Tillatepa (№136), uning maydoni 100 x 75 m ga teng.

XII. Kosonsoy irrigatsiya rayonini, A. A. Anarboyev o'z tadqiqotlarida uni Koson dehqonchilik vohasi deb nomlaydi (Anarboyev 1986: 6). Uning bosh yodgorligi Axsiket va uning atrofidagi yodgorliklar majmuasi qayd etilgan. Bu rayonning asosiy suv manbalari Kosonsoy, Dastarsoy, Taldiso, Olabuqasoy hisoblanadi.

XIII. Fovaso, irrigatsiya rayoniga Pop-Balandtepa atrofidagi yodgorliklar majmuasi kiradi. Bu guruh Morguzarsoy, Jabborsoy va Fovaso oralig'idagi xududni egallaydi. Bu xududiy rayonning yodgorliklari Sirdaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan soy xavzalarini egallaydi. Antik davrlardan to rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davrga tegishli 15 ta yodgorlik aniqlandi. Ular ilk o'rta asrlar davrini yirik yodgorliklari Balandtepa va Munchoqtepa atrofida joylashgan. Ushbu irrigatsiya rayoni markazi shubhasiz Balandtepa (qadimgi Bob) bo'lgan. Bu shahar Ohangaron (Shosh–Choch) vohasidan Qamchiq dovoni orqali o'tganda Farg'ona vodiysiga kirishda birinchi katta aholi punkti hisoblangan.

XIV. So'x irrigatsiya rayonida unchalik ko'p arxeologik yodgorlik aniqlangan emas. Bu mavze yodgorliklariga, asosan, So'xsoyning yuqori oqimi va uning tekislikka tushgan oqimidagi yodgorliklar kiradi (№172, 182, 183, 193). Bular yer egalari – dexqonlar qasrlari va ko'chmanchi aholidan qolgan mozar-qo'rg'onlardir. Bu davrda suv ayirg'ichlari rayonida va suv boshlarida mustahkam devorlar bilan o'ralgan qala-qo'rg'onlar paydo bo'ladi (Sariqo'rg'on – №156).

Irrigatsiya rayonlari xaqidagi bayonimizni yakunlar ekanmiz shuni ham ta'kidlash joizki, qadimgi Farg'ona xududiga tutash vodiyni g'arbiy qismida ikkita irrigatsiya rayonini shartli ajratish mumkin. Ularning biri Xo'jand atrofi (№188, 192, 194, 195) bo'lsa, ikkinchisi Isfana-Tagop rayonidir (№175, 176, 177, 178, 179, 180, 184, 185, 186). Ammo bu xududlarni territorial-geografik jihatdan vodi, doirasiga kiritish munozaralidir. Ular ko'proq So'g'diyona-Ustrushonaga qaragan (Gorbunova 1983: 23). Shuningdek, bu xudud arxeologiya yodgorliklari kam o'rganilgan, tadqiq etilgan yodgorliklar materiallari ham deyarli e'lon qilinmagan.

Ana shunday yodgorliklardan yana bir guruhi Isfaraso havzasiga joylashgan. Bu rayon Tojikiston xududining tog' oldi rayoni bo'lib, unda Tepa Qo'rg'on (№187), Kalai Bolo (№192A) yodgorliklari va ular atrofidagi kichik tepalardir (№173–174). Bu guruh yodgorliklari ham ilk o'rta asrlar davrida alohida madaniy voha sifatida shakllangan.

Demak, Farg'ona vodiysida ilk o'rta asrlar davrida uning axolisi suv manbalari (daryolar, soylar va ular irmoqlari xavzalari) bo'yida guruh-guruh bo'lib, voha va kichik vohalarni tashkil etib xo'jalik yuritganlar. Ro'yxatga olingan arxeologik yodgorliklar majmuasiga ko'ra, ular 22 ta voha va kichik vohalarga, Xo'jand atrofi, Isfanaso, Isfaraso va Eski Novqat atrofi rayonlarini ham qo'shganda vodi, 26 ta voha tarkib topganini kuzatamiz. Albatta irrigatsiya rayonlarining moddiy madaniyatida qator o'xshashliklar bilan birga ma'lum farqlar borligi shubhasiz. Jumladan, tadqiqotchilar tomonidan kulolchilik maxsulotlari asosida I ming yillik birinchi yarmida vodi, 7 ta kulolchilik markazlari bo'lganligi ta'kidlanadi va ular o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan (Gorbunova 1983: 41–44). Navbatdagi bo'limda ushbu irrigatsiya rayonlardagi arxeologik yodgorliklarni tasnifi xaqida gap boradi.

Dehqonchilik vohalaridagi ilk o'rta asr arxeologiya yodgorliklarining klassifikatsiyasi (1-2-3-rasmlar)

Arxeologiya yodgorliklari majmuasini yaratish va ularning xronologik doirasini aniqlash yo'lida olib borilgan izlanishlar davomida ilk o'rta asrlarga taalluqli 259 ta yodgorlik ro'yxatga olindi (shundan 217 tasi arxeologiya yodgorligi). Bu yodgorliklarning geografik joylashishi asosan so'nggi bronza, ilk temir davri, antik zamonda o'zlashtirilgan xududlar doirasiga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zlashtirilgan maydonlar aholini o'sish hisobiga kengaygan. Agar vodiyni to'rtta teng qismlarga bo'lsak, uning sharqiy bo'lagida ilk o'rta asrlar davri yodgorliklarining 80 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. Shu manzara oldingi davrlarga ham xos bo'lib, Farg'ona vodiysining sharqiy xududlari qadimdan bobodehqonlar diqqatini tortgan. Bunday manzarani yuz berishida bu tomonlarni Qoradaryo suv xavzalari bilan bog'liqligida bo'lsa kerak. Ayniqsa yodgorliklarning zich joylashishi Marg'ilonsoy (Shohimardonsoy) va Poshshootaso yo'nalishlari bo'yicha sharqqa tomon kuzatiladi, ya'ni: 22 ta dehqonchilik vohasidan 19 tasi ushbu xududlar yo'nalishida joylashgan. Yirik shaharlarning ko'pchiligi I–XI irrigatsiya rayonlari xududida joylashgan. Albatta, bundan Axsiket, Balandtepa (Bob) va Mug' qala mustasno. Marg'ilonsoy-Poshshootasoyni g'arbiy yo'nalishi bo'yicha yodgorliklar siyraklashib boradi. Tog' va tog' oldi xududlarda esa yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi axoli qoldirgan mozar qo'rg'onlar soni orta boradi (№202–205). Yodgorliklarning bunday joylashish manzarasi albatta tabiiy geografik sharoitdan kelib chiqqan. Bu holat antik davrga ham xos ekanligi qayd etilgan (Gorbunova 1977: 118–119). Bunday holatni o'tgan asrning 30-yillarida vodiyni Qizil Yor dashtida

ilmiy qidiruv olib borgan B. A. Latinin ham ta'kidlagan. Tadqiqotchining fikricha, arxeologik yodgorliklari guruhi uchta, ba'zida to'rtta, ba'zi hollarda bundan ham ko'proq yodgorliklar guruhini tashkil etadi. Ular orasidagi masofa 300–500 metr atrofida (Latynin 1961: 129). Yodgorliklarning ushbu davrda guruh-guruh bo'lib (3–4 ta), bitta katta yodgorlik atrofida joylashganini T. G. Obolduyeva ham Katta Farg'ona kanali qurilishi davridagi arxeologik kuzatishlari asosida ko'rsatib o'tgan (Obolduyeva 1951: 40). Ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari atrofida tog'lardan bosh olgan daryo-soy suvlari bilan bog'liq ekanligini B. A. Latinin alohida ta'kidlaydi. Uning ko'rsatishicha, asosiy dehqonchilik makonlari Oqbura, Isfayram, Shohimardon, So'x, Isfara (janub), Kosonsoy (shimol) havzalarida joylashgan va V–VIII asrlarda aholining aksariyat qismi shu atrofda istiqomat qilgan (Latynin 1961: 169).

Vodiyning 14 ta irrigatsiya rayonida jamlangan 217 ta arxeologik yodgorliklar o'z navbatida quyidagi 30 ga yaqin katta-kichik daryo-soylarning suv zahiralari bilan bevosita bog'liqdir: Yassi, Qurshob, Oqbura, Aravonsoy, Isfayramsoy, Marg'ilonsoy, So'xsoy, Isfarasoy, Morguzarsoy, Jabborsoy, Fovasoy, Sumsarsoy, Dastarsoy, Toldisoy, Olabuqasoy, Kosonsoy, Poshshootasoy, Chortoqsoy, Qolgandaryo, Ishtirxonariq, Moylisuv, Chartaksoy, Tentaksoy, Andijonsoy, Shaxrixonsoy, Quvasoy, Akshar, Qirg'izsoy, Chekobodsoy va boshqalardir.

Arxeologik yodgorliklar tipologiyasi. Yodgorliklarning joylashuv tizimida ularning funksional vazifasi e'tiborga olingan. Bu masalada bronza davri, ilk temir va antik davri yodgorliklari tipologiyasi bo'yicha ishlanmalar bo'lib, ularda antik davr yodgorliklari tipologiyasi Yu. A. Zadneprovskiy va N. G. Gorbunovalar tomonidan yaxshi ishlab chiqilgan. Bu yodgorliklarni tiplarga bo'lish, funksional jixatdan guruhlariga ajratish masalalari hal qilingan (Zadneprovskiy 1985: 312–313; Gorbunova 1977: 108–119). Boshqa xududlardagi mavjud tajribalarni hisobga olib, ushbu satrlar muallifi ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari tipologiyasini ilk bor amalga oshirdi. Yodgorliklar tipologiyasiga asos sifatida arxeologiya xarobalarining muqim aniqlangan belgilari bajargan vazifalari o'rtasidagi uyg'unlashuvi olindi. Bu belgilar yodgorlikning o'lchamlari, uni ichki tuzilishi (planirovkasi) va topilmalar tarkibida namoyon bo'ladi (Masson 1981: 36; Buryakov 1982: 9).

Bunda mavjud arxeologik yodgorliklar o'lchamlari, xususiyatlari (devorlari, qismlarga bo'linishi, shakli va h.) hisobga olinib, yodgorliklarning funksional jihatdan quyidagi guruhlariga bo'lish mumkinligi aniqlandi (1-ilova):

1. Shaharlar. Shahar maqomiga ega bo'lgan va ularga tenglashtirilganlar (mudofaa inshootlari mavjud shaharchalar) (ilovada "G" harfi bilan belgilangan). Ularning soni vodiy bo'ylab 22 ta yodgorlik (10,14%).

2. Qishloq makonlari (selskiye poseleniye) (ilovada "P"), ular vodiy bo'ylab 92 ta yodgorlik (42,40%).

3. Qal'alar (qoravul qal'alar?) (krepost) (ilovada "K") – 13 ta yodgorlik (5,99%).

4. Qal'a-qo'rg'onlar (yoki qasrlar), ular ikki xil ko'rinishda, ya'ni mudofaa devorlari bilan o'ralgan qasrlar (ukreplennoye poseleniye s zamkom) (ilovada "PZ") va mudofaa devorlarisiz qasrlar (neukreplennoye poseleniye s zamkom) (ilovada "ZP") – 27 ta yodgorlik (12,44%).

5. Yakka holda qad ko'targan turar-joylar va ular guruhi (mavze yoki ovullar?) (doma, massiv domov) (ilovada "D") – 29 ta (13,36%).

6. Yana ikki guruh yodgorliklar umumiy ro'yxatga kiritilgan va ular ham ilk o'rta asrlar madaniyatini ajralmas qismi hisoblanadilar. Qabristonlar (mogilniki) (ilovada "M") – 23 ta (10,60%). Bularga qo'shimcha va shartli ajratilgan guruh, ya'ni ularda madaniy qatlamlari bor, ularni biror tipga qo'shish esa munozarali (11 ta).

1. Shaharlar guruhiga shahar maqomiga ega yoki shunga tenglashtirilgan yodgorliklar birlashtirilgan, ularning soni yuqorida ta'kidlaganimizdek 22 ta bo'lib, ular ko'proq vodiyning sharqiy qismida uchraydi (№1, 3, 10, 21, 58, 62, 117, 146, 155, 162, 165, 166, 167, 181, 192, 197, 198, 200, 206, 208, 210). Ularning ichki tarkibi odatda kuxandiz, shahriston va shakllanib borayotgan rabodlardan iborat. Ular ilk o'rta asrlarda shaharga xos qator belgilarni o'zida mujassam etgan. Yodgorliklarni statistik tahlilini ko'rsatishicha, shaharlar o'z maydoniga ko'ra ikki xilga bo'linadi: 1) Maydoni 5 gektargacha bo'lgan kichik shaharlar. Tarixiy topografiyasiga ko'ra, ular ikki tarkibiy qismlarga bo'linadilar va ular ayrim olingan voha markazi vazifasini bajargan. 2) Maydoni 5–15 gektargacha bo'lgan katta shaharlar. Ular atrofi mahobatli mudofaa inshootlari bilan o'ralgan va uch tarkibiy qismga ajraladi. Ular hunarmandchilik, savdo-sotiq, diniy va siyosiy-madaniy markaz vazifasini bajargan. Bunday yirik shaharlar qatoriga Quva – maydoni 12 ga (saqlangani), Dunbuloq – 13,6 ga, Oqbura – 5,7 ga, Jonodil – 16,5 ga, To'rtko'ltepa – 12 ga, Balandtepa

va Axsiket kabi shaharlarni kiritish mumkin. Bu shaharlarda, albatta kuxandiz, shahriston uning tarkibida monumental binolar mavjud bo'lgan. Shaharlarning umumiy maydoni hunarmandchilik dahalariga bo'lingan va mahobatli diniy markaz-ibodatxonalar joylashgan. Shahar ichki bozori va aslzodalar xonadoniga oid binolar qad ko'taradi. Bu shaharlar antik davr shaharlari asosida qad ko'tarib, ular xududiy doirasidan sekin-asta karvonsaroylar shaharning rabod qismiga ko'cha boshlaydi. Kichik shaharlarning ko'pchiligi ilk o'rta asrlar davri mahsulidir. Chunki so'nggi antik davrdan boshlangan sinfiy va mulkiy tabaqalanish jarayoni, kashovarlar tarkibidan dehqonzodalarni ajralib chiqishi va buning oqibatida ularning qasrlarini yangi joylarda qad ko'tarishiga olib kelgan. Bu jarayon ba'zi bir antik shaharlarni inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lgan. Qoradaryo (10 ga), Jilandi (7 ga), Shimoliy Qurshob (5 ga), Yangibozor (10 ga), Uchqo'rg'on I (12 ga), Qaynovot (15 ga), Kalamishtepa (12 ga), Oqtepa (12 ga) kabilarda bu inqiroz izlari arxeologik jihatdan qayd etilgan. Biroq antik davrining hamma shaharlarining taqdiri shunday tugamagan. Asosi antik davrda qurilib, ilk o'rta asrlarda rivoj topgan shaharlar ham vodiya kam emas. S. P. Tolstov qadimgi Xorazmning arxeologik materiallariga asoslanib "ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shaharlar kamayib ketdi, bu quldorlik tuzimining inqirozidan dalolat beradi" deb e'tirof etadi (Tolstov 1962: 248–249; Xmel'niskiy 2000: 12–13). Bu holatni ayrim arxeologik materiallar ham tasdiqlaganday ko'rinadi. Ya'ni, I ming yillik o'rtalaridan ba'zi katta aholi punktlarida mudofaa devorlaridan foydalanilmagan (Gorbunova 1977:118). Aslida unday emas. Ba'zi bir antik davr shaharlarining inqirozi ilk o'rta asrlar davrida yuz bergan etnik masalalar bilan bog'liq edi. Xaqiqatda vodiya antik davr yirik shaharlarining soni 16 ta bo'lsa (Gorbunova 1977:114), ularning soni ilk o'rta asrlarga kelib 22 taga yetgan. Biroq bu davr shaharlari nafaqat vodiya, balki butun O'rta Osiyoda maydon jihatidan maydalashadi. Qiyosiy tadqiqotlarga ko'ra, V–VIII asrlarda shahar bilan qishloq o'rtasidagi farqlar yanada kamaygan (Zadneprovskiy 1973: 88–90). Bu jarayon ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda kechgan. Xitoy manbalari VII asrda vodiya "6 ta katta va 100 ga yaqin shaharlar bo'lgan" deb xabar beradi. Istaxriy va al-Muqaddasiy vodiya 40 ta shahar (ba'zida jome' masjidini mavjud yirik qishloqlar) bo'lganini qayd etadilar (Bolshakov 1973: 201–203; Masson 1998: 18). Bu qiyosiy solishtirmalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, Farg'onada shaharlar soni biz o'rganayotgan davrda nisbatan kam bo'lsada, ammo Istaxriylar zamonasiga (IX–X asrlar) kelib ko'paygan. Bu tabiiy holdir. Yirik shaharlarni ilk o'rta asrlar davrida kamayib, mayda shaharlarni ko'payishi kuzatiladi. Shu holatga yaqin manzara qo'shni Choch va Iloqda ham kuzatilgan. Unga asosan, VI–VIII asrlarda mayda shaharlar ko'paygan (Buryakov 1982: 140). Qolaversa, O'rta Osiyoning boshqa joylarida ham antik davrda o'zlashtirilgan maydonlarni ilk o'rta asrlarda kamayishi kuzatiladi (Nerazik 1976: 58).

2. Qishloq makonlari. Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar qishloq makonlari So'g'd va Xorazmdagi kabi keng ko'lamda o'rganilmagan. So'g'd qishloqlari atrofida mudofaa devorlari, o'ziga xos arki va ancha zich joylashgan uy-joylari borligi aniqlangan (Raspopova 1993: 41–44). Ayni paytda xuddi shunday qishloqlarning kuxandizi yo'qlari ham bo'lgan. O'rta Osiyo qishloqlarining me'moriy jihatdan klassifikatsiyasi V. A. Nilsen tomonidan ishlab chiqilgan. Ularni muallif uchta guruhga bo'ladi: 1) Katta yer egasi-feodalning qal'a-qo'rg'oni va uni atrofida oddiy dehqonlar (kadivorlar) uy-joylari; 2) Katta yer egasi qal'a-qo'rg'onining alohida joylashuvi; 3) Oddiy dehqonlarning alohida joylashgan uy-joylari (Nilsen 1966: 185–190). Ta'kidlash joizki, alohida olingan bir xududda qishloqlar xil (tip)lari ishlab chiqilmagan. Shunga qaramay, Farg'ona vodiysi qishloqlari tiplarini o'rganib, ularda quyidagi belgilar borligi aniqlandi.

Farg'onaning ilk o'rta asrlar davri qishloqlari maydoni 4 gektargacha boradi. Ularning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, shuningdek mudofaa devorisiz qishloqlar ham uchraydi. Ularning ba'zi birlari katta maydonni egallab, aholisi zich joylashgan va ba'zi bir tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu guruhga ro'yxatdagi 92 ta qishloq yodgorliklaridan 26 tasi ilk o'rta asrlarda (ro'yxatda qoraytirib ko'rsatilganlari) bunyod etilgan (№2, 4, 7, 8, 9, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 22, 24, 26, 28, 30, 31, 32, 33, 35, 38, 43, 45, 46, 50, 51, 52, 56, 60, 61, 63, 65, 66, 67, 70, 72, 83, 99, 106, 110, 112, 116, 118, 119, 120, 123, 125, 126, 127, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 140, 142, 143, 144, 145, 147, 150, 152, 153, 154, 157, 158, 159, 160, 161, 168, 169, 170, 171, 173, 174, 175, 176, 177, 178, 179, 180, 184, 189, 190, 191, 209).

Qolgan 66 tasi antik davrda qurilgan bo'lib, keyingi davrlarda ham ularda hayot davom etgan. Bular Qo'shtepa (№4 – maydoni 3 gektar), Mardaktepa (№26 – maydoni 100 x 150 m), Sartepa (№28 – maydoni 1,9 ga), Izboskan (№60 – maydoni 2,5 ga), Gorbobo (№157 – maydoni 2 ga)lar katta qishloqlar safiga kiradi. Bular, yuqorida aytganimizdek, shaharlar shakllanmagan ayrim vohalarning markazi vazifasini bajarganlar.

3. Qal'alar (Qoravul qal'alar) 13 ta (№25, 53, 54, 75, 77, 93, 108, 156, 192A, 199, 213) bo'lib, ulardan faqat uchta (№25, 53, 75) ilk o'rta asrlarda qad ko'targan. Qal'alar strategik jihatdan muhim manzillarda joylashib, mudofaaga alohida e'tibor beriladi, binolar qurilishida ularning vazifasi (askarlar va qoravullar yashashi, kuzatuv joylari va h.) hisobga olingan.

Vodiyda qoravul-qal'alarining ikki xili uchraydi: birinchisi vohalar yoki katta shaharlar kiraverishida o'ziga xos himoya chizig'i vazifasini bajaruvchi (№25, 93) qal'alar, ikkinchisi suv manbalari yoki suv ayirg'ich boshlarida suv nazorati uchun qurilgan maxsus qal'a-istehkomlar (№156, 192A, 213). Qal'alarining uchinchi xili ya'ni, qir-qoyalardagi nazorat-qal'alari bo'lib, ular xaqida N. G. Gorbunova muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi (Gorbunova 1973: 133–134). Bu o'rinda ikkinchi guruh qal'alarining ahamiyati katta bo'lgan. B. A. Latinin fikriga ko'ra, bu qal'a egalari yaqin atrofdagi yerlarni ham nazorat qilgan (Latynin 1961: 152). Bu tadqiqotchi bunday qal'alarga Qoradaryodagi Shoshtepa (№213), Isfarasoydagi Qal'ai Bolo (№192A), So'xsoydagi Sariqo'rg'on (№156)larni kiritadi. Sariqo'rg'on va Qal'ai Bolo antik davrda qurilgan va keyingi davrlarda ham ulardan keng foydalanilgan (Latynin 1961: 155). Shoshtepa – Qoradaryoning Kampirravot dasidan chiqaverishidagi Savay, Andijonsoy, Shahrixonsoylarning suv boshiga joylashgan muhim arxeologik yodgorlik hisoblanadi. U mil. avv. III–II va milodiy III–IV asrlari bilan davrlanadi. Uning asosiy vazifasi magistral kanallar suv oladigan suv ayirg'ichni qo'riqlash edi (Latynin 1961: 149–152). Xuddi shunday qo'riqlash vazifasini Qo'rg'oshintepa (№190), Oqtepa (Batken) (№182) lar ham bajargan.

4. Qal'a – qo'rg'onlar. Ularning soni 27 ta. Bu qal'alar asosan ilk o'rta asrlarda dehqonzodalarning qasri sifatida qad ko'targan va tevarak-atrof qishloqlari uchun markaz vazifasini o'tagan. Qal'a-qo'rg'onlar ikki xil bo'lib, ularning birinchisi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan qasrlar (feodal qasrlar) bo'lsa (№69, 81), ikkinchisi mudofaa devorlarisiz (№55, 69, 71, 73) qal'a qo'rg'onlardir. Birinchi xil qal'a egalari o'z ekin maydonlari atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab olganlar va qal'ada yersiz dehqonlarni – kadivarlarni ishlatganlar. Albatta, har ikki holatda ham binolar bir-ikki qavatli bo'lgan. Ayrim holatda donjonlar atrofiga qurilgan bir ikki qavatli binoli qal'a-qo'rg'onlar ham uchraydi (Xmelniskiy 2000: 65–66). Qal'a – qo'rg'onlar 14 tasi o'rganilayotgan ushbu davrda paydo bo'ladi, ularning aksariyati ilk o'rta asrlarning so'nggi (VII–VIII) bosqichida bunyod etilgan.

5. Yakka holda qad ko'targan turar-joylar va ular guruhi (mavzelar yoki ovullar). Ularning 29 tasi ro'yxatga olingan bo'lib, bularga maydoni, diametri 15–20 metr bo'lgan tepaliklar kiritilgan. Bu turar-joylar oddiy kashovarlarga tegishli bo'lishi kerak. Ular doimiy istiqomat qiladigan turar-joy va yordamchi xo'jalik binolardan iborat bo'lgan. Ularning ba'zilar devor bilan o'rab olingan. Shunday turar-joy massivlari o'z ekinzor uchastkalari bilan qadimgi Xorazmda ham o'rganilgan. Farg'ona vodiysida o'rganilgan bu guruhning yarmidan ko'prog'i (17 ta) ilk o'rta asrlarda, qolganlari antik davrda qad ko'targan. Alohida uy yoki uy-joy mavzeleri (massivlari?) asosiy dehqonchilik rayonlarida – aholi eng zich joylashgan xududlarda uchraydi. Masalan, ular Aravonsoy, Shahrixonsoy va Norin-Qoradaryo irrigatsiya rayonlarida qayd qilingan.

6. Qabristonlar (mozorlar) kam uchraydi va bir xil xususiyatlarga ham ega emas (№5, 6, 96, 105, 111, 121, 122, 138, 139, 163, 172, 193, 194, 195, 202, 203, 204, 205, 207, 212). Ular asosan tog', tog' oldi va ayrim hollarda adirlik qismlarda qayd etildi va ular ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi aholiga tegishlidir. Ammo, dehqonchilik bilan shug'ullangan aholiga tegishli mozorlar juda kam saqlangan. Biroq, vodiydagi bu davr qabristonlarida ko'mish marosimlarida aralashgan urf-odatlar ham uchraydi. Ya'ni, ko'chmanchi aholi va ular yaqinidagi dehqon aholi ham birgalikda qabristonlardan foydalanaverganlar. Shuning uchun bir mozorda har xil dafn etish usullari (yorma, lahad, o'ra go'rlar) uchraydi (Zadneprovskiy 1960: 124–126; Litvinskiy 1972: 73; Gorbunova 1981: 88–94; Matboboyev 1993: 44). Hozircha barcha belgilariga ko'ra Munchoqtepa I, II shahar qabristoni sifatida e'tirof etilishi mumkin (№207). Chunki, u shaharning yonginasida joylashgan bo'lsa, yana ikkinchi jihati qabriston shahar bilan bir davrda faoliyat ko'rsatgan. Bu guruh mozorlar juda oz miqdori saqlangan. Shuning uchun ilk o'rta asrlar urf-odatlarini (ayniqsa shahar aholisini) o'rganishda har bir aniqlangan mozor katta ahamiyatga egadir.

Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari suv manbalariga ko'ra oltita katta guruhga bo'lindi. Bunday tasniflashga asoslangan fikr-mulohazalarimiz shaxsiy tadqiqotlarimiz hamda O'rta Osiyodagi ushbu davr yodgorliklarini o'rganish natijasida qilingan xulosalarga asoslandi. Albatta, biz ibodat bilan bog'liq binolarni, uy-joylarni, shuningdek ishlab chiqarishga doir binolarni (chunonchi vino

ishlab chiqaruvchi, kulolchilik) alohida ajratmadik. Chunki, ular uchun materiallar hozircha kam. Biroq, vohalardagi arxeologik yodgorliklarni guruhlar bo'yicha joylashuvi shubhasiz muhim ma'lumotlar berishi mumkin. Chunki antik davr yodgorliklarini ayrim olingan xududda o'rganish muhim xulosalarga olib kelgan, ya'ni janubiy-sharqiy Farg'onani Karkidon va Nayman qishloqlari orasidagi 15 km<sup>2</sup> maydonda 10 ta yodgorlik aniqlangan. Bu guruhda: 3–4 ta alohida uy, ikkita atrofi devor bilan o'ralgan makon (biri markaz vazifasini o'tagan, ikkinchisi vino ishlab chiqarishga ixtisoslashgan), bitta voha istehkomi, bitta diniy ibodatga mo'ljallangan bino va bir qabriston qayd etilgan (Gorbunova 1977: 114–115).

Nihoyat, ushbu vohalarning shahar va qishloqlarida yashagan aholi nisbati ham muhim hisoblanadi. Agarda G. Chayldni katta shaharda 5000 kishi, mayda shaharda 1000 kishi yashagani xaqidagi hisob-kitobini nazarda tutib, Xitoy manbalaridagi Farg'onada ilk o'rta asrlarda 6 ta katta shahar va 100 ga yaqin kichik shahar borligi xaqidagi xabarga asoslansak, yirik shaharlarda 30000, mayda shaharlarda esa 100000 kishi yashagan bo'lib chiqadi (Zadneprovskiy 1973: 89–90). Agar o'z materiallarimizni shu hisob bilan taqqoslasak, quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin: 22 ta shaharda o'rtacha 3000 dan aholi yashagan bo'lsa, vodiy shaharlarida 65–70 ming aholi yashagani ma'lum bo'ladi. Endi bu raqamga Samarqand va Buxorodagi shahar va qishloqlar aholi nisbati: ya'ni 1:6 (Raspopova 1993: 38) va Farg'onaning antik davrdagi nisbati 1:4 qo'llanilsa (Zadneprovskiy 1984: 180) vodiy aholisi 250–300 mingta ekani oydinlashadi. Bu Farg'ona vodiysi aholisining tarixiy manbalaridagi raqamlarga (ya'ni, bu yerda Syanxanshu manbasida ko'rsatilgan Farg'ona aholisi soni – 300 ming ekanligi ko'zda tutilmoqda. Bu tarixiy mlumotlarga (Bichurin 1950: 186) zid kelmaydi.

Xulosalar. Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar arxeologiya yodgorliklari birinchi bor to'la ro'yxatga olinib, ular xaritaga tushirildi. Yodgorliklarni suv manbalari asosida irrigatsion rayonlashtirish va tasniflash quyidagi yakuniy fikrlarni aytishga imkon beradi:

1. 259 ta nuqtada V–VIII asrlar bilan bog'liq materiallar hisobga olindi. Ushbu davr arxeologiya yodgorliklarini suv manbalari bo'yicha guruh-guruh bo'lib vohalarda joylashishi aniqlandi. Tadqiqotda ularning joylashuvi bo'yicha quyidagi iyerarxik tizim taklif etildi, ya'ni, suv manbasi bo'yicha yodgorliklar guruhi vohalarni, bir necha voha esa irrigatsiya rayonini tashkil etgan (suv manbai >> voha, kichik voha >> irrigatsiya rayoni). Tashqi belgilari va o'lchamlari asosida har bir irrigatsiya rayoni uchun markaziy yodgorlik aniqlandi. Yodgorliklar 14 ta irrigatsiya rayonidagi voha va kichik vohalarga joylashgan.

2. Ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklarini tipologiyasi birinchi marta ishlab chiqildi va ular belgilangan xususiyatlariga ko'ra 6 guruhga ajratildi: shahar va unga tenglashtirilganlar (22 ta), qishloqlar (92), qal'alar (13), qal'a-qo'rg'onlar (27), yakka holda qad ko'targan turar-joy massivlari (29), qabristonlar (23). Har bir guruhga funksional jihatdan ta'rif berildi.

3. V–VIII asrlarda vodiy aholisining soni 250–300 ming bo'lsa, shundan 65–70 minggi shaharlarda yashagan (23–26%). Shaharlar soni bir oz ortadi, ya'ni arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, antik davrda 16 ta shahar aniqlangan bo'lsa, ilk o'rta asrlarda ularning soni 22 taga yetadi. Shaharlar ayrim olingan voha yoki irrigatsiya rayonining hunarmandchilik, savdo-sotiq va diniy markaz vazifasini bajarganlar.

4. Yodgorliklarning 80% vodiyning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida joylashgan va aholi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu holat oldingi antik davrda ham kuzatilgan va yodgorliklarni vodiyning ushbu qismida to'plangani tadqiqotchilarga Davan podsholigi aynan shu yerda joylashgan degan xulosaga olib kelgan edi (Gorbunova 1977: 118).

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*Абдулгазиёва Б.* Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология). Текст и альбом диссертации на соиск. уч. степени канд. ист. наук. Самарканд, 1988.

*Абдулгазиёва Б.* Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Самарканд, 1988. 20 с.

*Аскарлов А.* Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. 232 с.

*Аскарлов А. А., Ширинов Т. Ш.* Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993. 251 с.

*Анарбаев А. А.* Городская культура Ферганы и ее связи Согдом // Городская среда и культура Бактрии-Тохаристана и Согда (IV в. до н. э. – VIII в. н. э.). ТД международного коллоквиума. Ташкент, 1986. С. 6–7.

*Бичурин Н. Я.* Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. М.–Л.: изд-во АН СССР, 1950. 335 с.

*Брыкина Г. А.* Карабулак. М.: Наука, 1974. 127 с.

*Буряков Ю. Ф.* Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982. 212 с.

*Большаков О. Г.* Город в конце VIII – нач. XIII в. // Средневековой город Средней Азии. Л.: Наука, 1973. С. 132–352.

*Бернштам А. Н.* Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26. М.–Л., 1952. 346 с.

*Брыкина Г. А., Горбунова Н. Г.* Фергана // Археология. Средняя Азия в раннем средневековья. М., 1999. С. 93–113.

*Васильев Д. Д.* Графический фонд памятников тюркской рунической письменности Азиатского ареала: Опыт систематизации. М.: Наука, 1983. 160 с.

*Горбунова Н. Г.* Поселения Ферганы первых веков нашей эры (Некоторые итоги исследования) // СА. № 3. М., 1977. С. 107–120.

*Горбунова Н. Г.* Кугайско-карабулакская культура Ферганы // СА. № 3. М., 1983. С. 23–46.

*Горбунова Н. Г.* Некоторые итоги исследования поселений Ферганы кушанского времени // ТД сессии, посвящ. итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент: Фан, 1973. С. 133–134.

*Горбунова Н. Г.* Культура Ферганы в эпоху раннего железа // АСГЭ. Вып. 5. Л.: Искусство, 1962. С. 91–122.

*Горбунова Н. Г.* О типах ферганских погребальных памятников первой половины I тысячелетия н. э. // АСГЭ. Вып. 22. Л.: Искусство, 1981. С. 84–99.

*Заднепровский Ю. А.* Археологические памятники южных районов Опшской области. Фрунзе. 1960. 176 с.

*Заднепровский Ю. А.* Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. № 118. М.–Л., 1962. 328 с.

*Заднепровский Ю. А.* Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // ТД сессии, посвящ. итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент: Фан, 1973. С. 88–90.

*Заднепровский Ю. А.* К истории оазисного расселения в первобытной Средней Азии // КСИА. Вып. 167. М., 1981. С. 23–28.

*Заднепровский Ю. А.* Древняя Фергана // История Киргизской ССР. Том I. Фрунзе.: Кыргызстан, 1984. С. 177–201.

*Заднепровский Ю. А.* Фергана (в античную эпоху) // Археология СССР: Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Гл. 16. М.: Наука, 1985. С. 304–316.

*Заднепровский Ю. А.* Динамика развития оседлоземледельческой культуры Ферганы // Аральский кризис: ист.-геогр. ретроспектива. М., 1991. С. 186–198.

*Латынин Б. А.* Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: Искусство, 1961. С. 109–170.

*Латынин Б. А.* Вопросы хронологии земледельческих культур древней Ферганы // Исследования по археологии СССР. Л., 1961А. С. 111–119

*Литвинский Б. А.* Курганы и курумы Западной Ферганы. М.: Наука, 1972. 258 с.

*Литвинский Б. А.* Керамика из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1973. 202 с.

*Литвинский Б. А.* Украшения из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1973. 212 с.

*Литвинский Б. А.* Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1978. 216 с.

*Массон В. М.* Кушанская эпоха в древней истории Узбекистана // ОНУ. № 6. Ташкент, 1981. С. 36–43.

- Матбобоев Б. Х. Шимолий Фарғонанинг қадимги мозорларини ўрганишга доир (Ковасой ва Ко-сонсой ҳавзалари) // ЎИФ. № 3. Ташкент. 1993. 19–23 Б.
- Матбабаев Б. Х. Қадимги Фарғонадаги дафн маросимлари // ЎИФ. № 5. Тошкент, 1994. 47–52 Б.
- Массон В.М. Ош и городские центры Ферганской долины // Древний Ош в среднеазиатском кон-тексте. ТД МК. Ош, 1998. С. 15–19.
- Мирбабаев А. К. Дахмаки Курката и проблемы зороастрийской идеологии в Северной Средней Азии. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Душанбе, 1994.
- Неразик Е. Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XV вв.). Из истории жилища и семьи. Археоло-го-этнографические очерки. М.: Наука, 1976. 256 с.
- Нильсен В. А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). Ташкент: Фан, 1966. 335 с.
- Оболдуева Т. Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала // ТИИА АН УзССР. Т. IV. Ташкент, 1951. С. 7–40.
- Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан. Очерки истории и культуры. Ташкент: Фан, 1990. 110 с.
- Распопова В. И. Раннесредневековый согдийский город (по материалам Пенджикента) // Дис-сертация на соискание ученой степени доктора исторических наук в форме научного доклада. Санкт-Петербург, 1993. 69 с.
- Ртвеладзе Э. В. К характеристике памятников Сурхандариньской области ахеменидского време-ни // СА. № 2. М., 1975. С. 262–266.
- Сагдуллаев А. С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа (по мате-риалам памятников района Шурчи-Байсуна): Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ленинград, 1978. 17 с.
- Средняя Азия. Природные условия и естественные ресурсы. М., 1968. 485 с.
- Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: изд-во восточной литературы, 1962. 324 с.
- Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннежелезного века. Ташкент – 2000. Ташкент: Фан, 1986. 136 с.
- Шульц В. Л. Реки Средней Азии. Ленинград, 1965. 692 с.
- Шульц В. Л., Маиранов Р. М. Ўрта Осиё гидрографияси. Тошкент, 1969. 215 с.
- Хмельницкий С. Г. Между Кушанами и Арабами. Архитектура Средней Азии V–VIII вв. Бер-лин-Рига: Gamajun, 2000. 293 с.

#### REFERENCES:

- Abdulgazieva B. 1988. *Vostochnaya Fergana v drevnosti i rannem srednevekov'e (sistema rasseleniya, rajonirovanie i tipologiya) (Eastern Ferghana in antiquity and the early Middle Ages (settlement system, zoning and typology))*. Thesis i al'bom dissertatsii na soisk. uch. stepeni kand. ist. nauk. Samarkand. (In Russian).
- Abdulgazieva B. 1988. *Vostochnaya Fergana v drevnosti i rannem srednevekov'e (sistema rasseleniya, rajonirovanie i tipologiya) Eastern Ferghana in antiquity and the early Middle Ages (settlement system, zoning and typology)*: Avtoref. diss... kand. ist. nauk. Samarkand, 20. (In Russian).
- Askarov A. 1977. *Drevnezemledel'cheskaya kul'tura ehpokhi bronzy yuga Uzbekistana (Ancient agricultural culture of the Bronze Age in the south of Uzbekistan)*. Tashkent: Fan Publ., 232. (In Russian).
- Askarov A. A., Shirinov T. Sh. 1993. *Ranniyaya gorodskaya kul'tura ehpokhi bronzy yuga Srednej Azii. (Early urban culture of the Bronze Age in the south of Central Asia)*. Samarkand, 251. (In Russian).
- Anarbaev A. A. 1986. *Gorodskaya kul'tura Fergany i ee svyazi Sogdom (Urban culture of Fergana and its connections with Sogdom)*. In *Gorodskaya sreda i kul'tura Baktrii-Tokharistana i Sogda (IV v. do no eh - VIII v.n.eh.)*. TD mezhdunarodnogo kollokviuma. Tashkent, 6–7. (In Russian).
- Bichurin N. Ya. 1950. *Sobranie svedenij o narodakh, obitavshikh v Srednej Azii v drevnie vremena*. Т. II. Moscow–Leningrad: Izd-vo AN SSSR Publ., 335. (In Russian).

- Brykina G. A. 1974. *Karabulak*. Moscow: Nauka Publ., 127. (In Russian).
- Buryakov Yu. F. 1982. *Genesis i ehtapy razvitiya gorodskoj kul'tury Tashkentskogo oazisa (Genesis and stages of development of the urban culture of the Tashkent oasis)*. Tashkent: Fan Publ., 212. (In Russian).
- Bol'shakov O. G. 1973. *Gorod v kontse VIII – nach. XIII v. (City at the end of 8th – nah. 13th c.)*. In *Srednevekovoj gorod Srednej Azii (Medieval city of Central Asia)*. Leningrad: Nauka, 132–352. (In Russian).
- Bernshtam A. N. 1952. *Istoriko-arkheologicheskie ocherki Tsentral'nogo Tyan'-Shanya i Pamiro-Alaya*. In *MIA – Materialy i issledovaniya po arkheologii SSSR (Materials and research on archeology of the USSR)*. №26. Moscow–Leningrad, 346. (In Russian).
- Brykina G.A, Gorbunova N. G. 1999. *Fergana. Arkheologiya. Srednyaya Aziya v rannem srednevekov'ya*. (Archeology. Central Asia in the Early Middle Ages). Moscow, 93–113. (In Russian).
- Vasil'ev D. D. 1983. *Graficheskij fond pamyatnikov tyurkskij runicheskij pis'mennosti Aziatskogo areala: Opyt sistematizatsii (Graphic fund of monuments of the Turkic runic writing of the Asian area: The experience of systematization.)*. Moscow: Nauka Publ., 160. (In Russian).
- Gorbunova N. G. 1977. *Poseleniya Fergany pervykh vekov nashey ehry (Nekotorye itogi issledovaniya) Settlements of Fergana in the first centuries of our era (Some results of the study)*. In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. № 3. Moscow, 107–120. (In Russian).
- Gorbunova N. G. *Kugajsko-karabulakskaya kul'tura Fergany (Kugai-Karabulak culture of Fergana)*. In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. № 3. M., 1983. S. 23–46. (In Russian).
- Gorbunova N. G. 1973. *Nekotorye itogi issledovaniya poselenij Fergany kushanskogo vremeni (Some results of the study of the settlements of Fergana in the Kushan period)*. TD sessii, posvyashh. itogam polevykh arkheologicheskikh issledovanij 1972 goda. Tashkent: Fan, 133–134. (In Russian).
- Gorbunova N. G. 1962. *Kul'tura Fergany v ehpokhu rannego zheleza (Culture of Fergana in the Early Iron Age)*. In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage)*. Issue 5. Leningrad: Iskusstvo Publ., 91–122. (In Russian).
- Gorbunova N.G. *O tipakh ferganskikh pogrebal'nykh pamyatnikov pervoj poloviny I tysyacheletiya n. eh (On the types of Fergana burial sites of the first half and millennium AD)*. In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage)*. Issue 22. L.: Iskusstvo, 1981. S. 84–99. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. 1960. *Arkheologicheskie pamyatniki yuzhnykh rajonov Oshskoj oblasti (Archaeological monuments of the southern districts in the Osh region)*. Frunze, 176. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. *Drevnezemledel'cheskaya kul'tura Fergany (Ancient agricultural culture of Ferghana)*. In *MIA – Materialy i issledovaniya po arkheologii SSSR (Materials and research on archeology of the USSR)*. № 118. Moscow-Leningrad, 1962. 328. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. 1973. *Tipologiya i dinamika razvitiya gorodskikh poselenij drevnej Fergany (Typology and dynamics of development of urban settlements of ancient Fergana)*. TD sessii, posvyash. itogam polevykh arkheologicheskikh issledovanij 1972 goda. Tashkent: Fan Publ., 88–90. (In Russian).
- Zadneprovskij Yu. A. 1981. *K istorii oazisnogo rasseleniya v pervobytnoj Srednej Azii (On the history of oasis settlement in primitive Central Asia)*. In *KSIA – Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii (Brief Communications of the Institute of Archeology)*. Issue 167. Moscow, 23–28. (In Russian)
- Zadneprovskij Yu. A. 1984. *Drevnyaya Fergana (Ancient Fergana)*. In *Istoriya Kirgizskoj SSR*. Tom I. Frunze: Kyrgyzstan, 177–201. (In Russian)
- Zadneprovskij Yu. A. 1985. *Fergana (v antichmyu ehpokhu) Ferghana (in ancient times)*. In *Arkheologiya SSSR: Drevnejshie gosudarstva Kavkaza i Srednej Azii (Archeology of the USSR: The most ancient states of the Caucasus and Central Asia)*. Gl. 16. Moscow: Nauka, 304–316. (In Russian)
- Zadneprovskij Yu. A. 1991. *Dinamika razvitiya osedlozemledel'cheskoj kul'tury Fergany (Dynamics of development of the settled agricultural culture of Fergana)*. In *Aral'skij krizis: istoriko-geograficheskaya retrospektiva*. Moscwa, 186–198. (In Russian)

Latynin B. A. 1961. *Nekotorye itogi rabot Ferganskoj ehkspeditsii 1934 g. (Some results of the work of the Fergana expedition in 1934)*. In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage)*. Issue 3. Leningrad: Iskusstvo Publ., 109–170.

Latynin B. A. 1961 a. *Voprosy khronologii zemledel' cheskikh kul'tur drevnej Fergany (Questions of the chronology of agricultural cultures of ancient Fergana)*. In *Issledovaniya po arkheologii SSSR*. Leningrad, 111–119. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1972. *Kurgany i kurumy Zapadnoj Fergany (Burial mounds and kurums of Western Fergana)*. Moscow: Nauka Publ., 258. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1973. *Keramika iz mogil'nikov Zapadnoj Fergany (Ceramics from the graves of Western Fergana)*. Moscow: Nauka Publ., 202. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1973. *Ukrasheniya iz mogil'nikov Zapadnoj Fergany (Jewelry from the graves of Western Fergana)*. Moscow: Nauka Publ., 212. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1978. *Orudiya truda i utvar' iz mogil'nikov Zapadnoj Fergany (Tools and utensils from the graves of Western Fergana)*. Moscow: Nauka Publ., 216. (In Russian).

Masson V. M. 1981. *Kushanskaya ehpkoha v drevnej istorii Uzbekistana*. In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan)*. № 6. Tashkent, 36–43. (In Russian).

Matboboev B. Kh. 1993. *Shimolij Farg'onaning qadimgi mozorlarini o'rganishga doir (Fovasoj va Kosonsoj havzalari) (Regarding the study of the ancient graves of Northern Fergana (Fovasoj and Kosonsoj basins)*. In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan)*. № 3. Tashkent, 19–23. (In Uzbek).

Matbabaev B. Kh. 1994. *Qadimgi Farg'onadagi dafn marosimlari (Funeral rites in ancient Fergana)*. In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan)*. № 5. Tashkent, 47–52. (In Uzbek).

Masson V. M. 1998. *Osh i gorodskie tsentry Ferganskoj doliny (Osh and urban centers of the Fergana Valley)*. In *Drevnyj Osh v sredneaziatskom kontekste (Ancient Osh in the Central Asian Context)*. TD MK. Osh, 15–19. (In Russian).

Mirbabaev A. K. 1994. *Dakhmaki Kurkata i problemy zoroastrijskoj ideologii v Severnoj Srednej Azii (Dakhtaki Kurkat and problems of Zoroastrian ideology in Northern Central Asia)*. Dissertatsiya na soiskanie uchenoj stepeni doktora istoricheskikh nauk. Dushanbe. (In Russian).

Nerazik E. E. 1976. *Sel'skoe zhilishhe v Khorezme (I–XV vv.). Iz istorii zhilishha i sem'i. (Rural dwelling in Khorezm (Ith-15th centuries). From the history of dwelling and family)*. In *Arkheologo-ethnograficheskie ocherki (Archaeological and ethnographic essays)*. Moscow: Nauka Publ., 256. (In Russian).

Nil'sen V. A. 1966. *Stanovlenie feodal'noj arkhitektury Srednej Azii (V–VIII vv.) (Formation of the feudal architecture of Central Asia (5th-8th centuries)*. Tashkent: Fan, 335. (In Russian).

Oboldueva T. G. 1951. *Otchet o rabote pervogo otryada arkheologicheskoy ehkspeditsii na stroitel'stve Bol'shogo Ferganskogo kanala (Report on the work of the first detachment of the archaeological expedition on the construction of the Great Fergana Canal)*. In *TIIA AN UzSSR (Proceedings of the Institute of History and Archeology of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR)*. Vol. IV. Tashkent, 7–40. (In Russian).

Pugachenkova G. A., Rtveladze Eh. V. 1990. *Severnaya Baktriya-Tokharistan. Ocherki istorii i kul'tury. (Northern Bactria-Tokharistan. Essays on history and culture)*. Tashkent: Fan Publ., 110. (In Russian).

Raspopova V. I. 1993. *Rannesrednevekovyj sogdijskij gorod (po materialam Pendzhikenta) (Early medieval Sogdian city (based on materials from Penjikent)*. Dissertatsiya na soiskanie uchenoj stepeni doktora istoricheskikh nauk v forme nauchnogo doklada. Sankt-Peterburg, 69. (In Russian).

Rtveladze Eh. V. 1975. *K kharakteristike pamyatnikov Surkhandarin'skoj oblasti akhemenidskogo vremeni (To the characteristics of the monuments of the Surkhandarin region of the Achaemenid time)*. In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. № 2. Moscow, 262–266. (In Russian).

Sagdullaev A. S. 1978. *Kul'tura Severnoj Baktirii v ehpkhu pozdnej bronzy i rannego zheleza (po materialam pamyatnikov rajona Shurchi-Bajsuna) (Culture of Northern Bactria in the Late Bronze and*

*Early Iron Ages (based on the materials of the monuments of the Shurchi-Baysun region):* Avtoref. diss... kand. ist. nauk. Leningrad, 17. (In Russian).

*Srednyaya Aziya.* 1968. *Prirodnye usloviya i estestvennye resursy (Natural conditions and natural resources).* Moscow, 485. (In Russian).

Tolstov S. P. 1962. *Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta (According to the ancient cases of Oxus and Jaxart).* Moscow: Vostochnaya literatura, 324. (In Russian).

Shajdullaev Sh. B. 1986. *Severnaya Baktriya v ehpokhu rannezheleznogo veka (Northern Bactria in the Early Iron Age).* In Tashkent – 2000. Tashkent: Fan, 136. (In Russian).

Shul'ts V. L. 1965. *Reki Srednej Azii (Rivers of Central Asia).* Leningrad, 692. (In Russian).

Shul'ts V. L., Mashrapov R. M. 1969. *O'rta Osiyo gidrografiyasi (Hydrography of Central Asia).* Toshkent, 215. (In Uzbek).

Khmel'nitskiy S. G. 2000. *Mezhdú Kushanami i Arabami. Arkhitektura Srednej Azii V–VIII vv. (Between the Kushans and the Arabs. Architecture of Central Asia 5th–8th centuries).* Berlin-Riga: Gamajun Publ., 293. (In Russian).

---

## **OASIS-BASED DISTRIBUTION OF ARCHAEOLOGICAL SITES ALONG THE WATER SOURCES AND THEIR CLASSIFICATION (5<sup>TH</sup>–8<sup>TH</sup> CENTURIES)**

**© 2023. Matbabayev Bokijon**

*Samarkand Institute of Archaeology named after Y. Gulyamov*

---

**Keywords:** Fergana Valley, early medieval period, irrigation areas, oases, land tenure, confederacy, typology, orange farming, cattle breeding.

The location of sites in relation to water sources in the Fergana Valley in the early medieval period has not been studied. In the framework of his doctoral thesis, the author for the first time carried out an inventory and systematization of sites of this period. During the mapping process, more than 250 sites of early medieval Fergana were identified. Those comprised 217 archaeological sites, 22 locations of ancient Turkic inscriptions, and about 20 ossuary and hum burials, as well as two treasures of coins. Given the presence of water sources, each group of sites was merged into micro-oases or oases, the latter, in turn, into irrigation areas. As a result, the following hierarchical zoning system was created: water source >> micro-oasis, oasis >> irrigation area. For each oasis or irrigation area, we have conditionally identified the so-called pivotal sites that probably played the role of an administrative, craft, or cultural center of an oasis or several oases (usually 2–3). As a result, we have allocated 14 irrigation districts in the Fergana Valley. The identified irrigation areas almost completely coincide with the territory that was once developed in earlier periods. They are located in groups based on the water resources of rivers and springs (sai). Thus, the settlement pattern is similar to the location of sites of the Chust and Eilatan cultures.

## НОВЫЕ НАХОДКИ ОССУАРИЕВ В САМАРКАНДЕ

© 2023. Богомолов Геннадий, Бердимуратов Амридин, Болиев Бахриддин  
Национальный центр археологии АН РУз,  
Самаркандский Институт археологии им. Я. Гулямова

---

**Ключевые слова:** оссуарий, Еттигур, Кафиркала, Афрасиаб, погребение, некрополь, декор, зороастризм, культура.

Широкие археологические исследования, развернувшиеся в последние годы на территории Самарканда, позволили получить разнообразные и интересные археологические материалы, характеризующие различные стороны культуры его населения в разные исторические периоды. Особое место среди них занимают оссуарии. Несмотря на малочисленность находок, они проливают свет на художественную культуру и религиозные представления согдийцев в доисламский период. В статье рассматриваются последние находки оссуариев в Самарканде и его окрестностях. Один из них обнаружен случайно и происходит с современного мусульманского кладбища Еттигур, расположенного напротив северо-западного угла городища Афрасиаб. Второй представлен лишь богато орнаментированной крышкой. Но она была найдена в процессе раскопок дворца богатого горожанина на городище Кафиркала под Самаркандом и происходит из слоя заброса после пожара середины VIII века. Приводится их сопоставление с другими выявленными ранее астодами и обосновывается их датировка. Отдельно рассматриваются элементы декора, их особенности и символическое значение. Тип оссуария из Еттигура ранее был известен только по небольшим фрагментам. Теперь впервые его удалось реконструировать полностью. Кроме того, находка оссуария из Еттигура может указывать на существование на северо-западной окраине Афрасиаба еще одного оссуарного некрополя VII–VIII вв.

---

## SAMARQANDDAGI OSSUARIYLARNING YANGI TOPILMALARI

© 2023. Bogomolov Gennadiy, Berdimuradov Amridin, Boliev Baxriddin  
O'zr FA Milliy arxeologiya markazi  
Y. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

---

**Kalit so'zlar:** ossuariy, Yettigo'r, Kofirqal'a, Afrosiyob, qabr, nekropol, dekor, zardo'shtiylik, madaniyat

Ushbu soha yangi uslubiy yo'nalishlar, jumladan, genetika (qadimiy va zamonaviy DNK yordamida, qadimiy genetika), izotop tadqiqotlari, fitokimy, proteomika va boshqa biomarkerlarni o'z ichiga olgan holda izchillik bilan kengayib borar ekan, an'anaviy tarzda qadimgi o'simliklarning qoldiqlari morfologik identifikatsiyaga e'tibor qaratdi. Ushbu sohadagi ko'plab olimlar paleoetnobotanikani metodologik yondashuvlarga asosan ikkita asosiy tarmoqqa ajratadilar: mikrobotanik va makrobotanik usullar. Makrobotanik qoldiqlar odamning ko'zi bilan ko'rish uchun yetarlicha katta bo'lgan barcha arxeobotanik qoldiqlardir. Mikrobotanik qoldiqlarga esa faqat mikroskoplarda kattalashtirilganda ko'rsa bo'ladigan narsalar: fitolitlar, polen va donli kraxmal kiradi. Ikkala uslubiy tarmoq ham mikroskop morfologik identifikatsiyaga tayanadi; biroq, makrobotanik izlanishlar ko'proq 50 barobar kattalashtirishgacha plyonkali mikroskoplardan foydalanadi, mikrobotanik yondashuvlarda esa aks ettirilgan yoki 1000-marta kattalashtirilgan nurli mikroskoplar qo'llaniladi (Pearsall 2015).

Donning makroqoldiqlari (urug'i, boshog'i, qobig'i kabilar) va fitolitlar esa to'g'ridan-to'g'ri o'simlik o'sgan, foydalanilgan yoki u ko'milgan yerda saqlanadi. O'simlik gulchaglari u o'sgan yerda ham, uning atrofida ham tarqalgan bo'ladi. Palinologik tahlil chog'ida dehqonchilikning belgilarini oydinlashtirishning eng katta istiqboli bu – donlarning changidir (Jilich, Shnayder, Rudaya 2019: 389). Botanik mutaxassislar don va begona o'tlarning gulchaglaridan foydalanadilar. Antropogen begona o'tlar uch guruhga bo'linadi: segetal, paskval, ruderal. Ushbu ro'yxatdan faqat birinchisi dehqonchilik bilan, ikkinchisi – chorvachilik bilan bog'liq bo'lsa, uchinchisi – uylar yaqinida, yo'l yoqalarida va tashlandiq yerlarda o'suvchi o'tlardir. Karpologik namunalar madaniy o'simliklar (yoki segetal begona o'tlar)ning o'zi ham, ularning izlari ham (masalan, idishlarning kuygan yerlarida yoki loyda) topilmalar o'laroq ifodalanishi mumkin (Yepimaxov 2010: 36).

Paleoetnobotanik izlanishlar keng va xilma-xil soha bo'lib, global miqyosda insonning mahalliy sharoitga moslashishini talqin qilishgacha bo'lgan barcha narsalarni qamrab oladi. Amaliyotchilar soni, namuna olish va tahlil qilish darajasi, dunyo bo'ylab bu kabi ishlar bajariladigan tegralarning hamda o'rganiladigan masalalarning kengligi tufayli ushbu soha kengaydi. 1970-yildagi flotatsiya inqilobi bugungi kunga kelib Osiyo va Afrika yerlarigacha tarqalmoqda. 1980-yillardagi nazariy bahslar o'simlik qoldiqlarini talqin qilishda juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, 1990–2000-yillardagi texnologik mukammallashishlar bu boradagi bilgilarni tahlil qilish, chop etish va almashish uchun katta imkoniyatlarni ochib berdi (Paleoethnobotanical Method 2015).

*O'rta Osiyo dehqonchiligining manbaviy asoslari.* O'tmishdagi biror qabila yoki elatning xo'jaligida dehqonchilikning bo'lganini bilish uchun izlanuvchilar bir qancha argumentlarga suyanishadi. Ularni muallif o'quvchiga qulay bo'lishi uchun folklor, yozma, lingvistik, etnografik, arxeologik manbalar kabi alohida guruhlarga ajratdi.

1) Folklor manbalar. Xalqlarning uzoq o'tmishini tiklashda izlanuvchilar xalq og'zaki ijodi yoki folklor namunalariga suyanishadi. Chunki xalq og'zaki ijodiga kiruvchi maqollar, xalq qo'shiqlari, dostonlar, afsona va rivoyatlar, topishmoqlar, ertaklar kabilar turmush tarzi va madaniyat, dunyoqarash va ruhiy kechinmalar, urf-odat va tarixiy voqeliklarni o'zida umumlashtirgan bo'ladi. Bir qancha ko'plab manbalar bilan birga folklor manbalariga ham suyangan holda o'rta osiyolik qomusiy izlanuvchilar Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'at at turk", Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy "Buxoro tarixi" kabi asarlarini yozishgan.

O'zbek xalq maqollarida yer, suv, donli ekinlardan arpa, bug'doy, tariq, daraxtlardan tut, tol, sada, terak, shuningdek, tarvuz, qovun, jo'xori, paxta kabi ekinlar, mehnat qurollari to'g'risida so'z yuritiladi (O'zbek xalq maqollari 2003). Ayrim izlanuvchilar xalq afsonalari va rivoyatlarida o'simlik va hayvonot dunyosining aks etishini o'rganishgan (Drevniye obryady 1986; Demidov 2020). "Sust xotin", "Choy momo", "Shox moylar" kabi mehnat, marosim va mavsum qo'shiqlari

ham O'rta Osiyo xalqlarining dehqonchilik madaniyatini yoritishda qo'l keladi (Alaviya 1974; Jo'rayev 2008). Yoki Navro'z, darveshona, qo'sh oshi, shox-moylar, urug' sepish, lola, boychechak, suv, qum, qovun sayillari, yomg'ir chaqirish, shamol to'xtatish va chaqirish, hosilni yig'ish, Mehrjon kabi taqvimiy marosimlarda ham mintaqa xalqlarining dehqonchiligi o'z aksini topgan (Sarimsoqov 2011). Yoki xalq dostonlari ham O'rta Osiyo aholisining xo'jaligi to'g'risida qiziq bilgilar beradi. Masalan, "Alpomish" dostonida keltirilishicha, "16 urug' Qo'ng'iro't elidan 10 ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan elibo'ylar ayrilib, Boysariga qo'shildi. Bular hammasi boy, qo'yli, tuyali, molining soni yo'q edi. ... Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi" (Alpomish 1998: 26).

Umuman, bu kabi ishlar ko'proq folklorshunoslar yoki etnograflarning tadqiqot obyektiga to'g'ri kelmoqda. Biroq O'rta Osiyo dehqonchiligi o'tmishini yoritishni o'z oldiga maqsad qilgan boshqa barcha mutaxassislar ham folklor manbalaridan unumli foydalanishlari kerak.

2) *Yozma manbalar*: O'rta Osiyo dehqonchiligining kelib chiqishini deyarli barcha izlanuvchilar yozma manbalardan "Avesto" bilan bog'lab o'rganishadi. Aslida yunon, xitoy, arab va fors tillaridagi mintaqaning qadimgi yozma manbalari, O'rta Osiyoda bo'lgan sayyohlar, elchilarning esdaliklarida dehqonchilik, bog'dorchilik, sug'orish tizimi, umuman, mintaqaning flora va faunasi to'g'risida qiziq bilgilar uchraydi. Bu borada Mug' tog'i hujjatlari orasidagi dehqonchilik va xo'jalik bilan bog'liq hujjatlar alohida izlanishlarga sabab bo'lgan (Sogdiyskiye dokumenty s gory Mug 1962:134–138; Sogdiyskiye dokumenty s gory Mug 1963: 10–13, 29–56, 67–69; Yakubov 1979; Mamaraximova 2001). Shuningdek, xitoy yilnomalarida, xususan, O'rta Osiyodan Xitoyning Tan sulolasi saroyiga tortiq o'laroq keltirilgan sovg'a-salomlar orasida yuzlab meva-cheva va dorivor o'simliklar uchraydi (Shefer 1981). Arab va fors tillaridagi geografik va umumiy tarixiy asarlarda ham O'rta Osiyo tegralaridagi har bir o'lka, shahar va qishloqlarda yetishtiriladigan madaniy o'simliklarga doir keng bilgilar uchraydi. Temuriylardagi dehqonchilik va bog'dorchilik to'g'risida ko'proq yozma manbalarga tayanilgan ishlar qilingan (Maxmudov 1966).

Birgina yozma manbalarga tayanilgan izlanishlar ushbu keng muammoni yoritishdagi bo'shliqni qandaydir darajada to'ldira oladi, biroq boshqa manbalarning jalb etilmagani yoki oz darajada jalb etilgani bunday izlanishlarning ishonchligini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun, O'rta Osiyoning qadimgi aholisining hayotni ta'minlash tizimini to'laqonli ochib berishga kirishgan izlanuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma manbalardan tashqari boshqa artefaktlarni ham unumli qo'llay olishi kerak.

3) *Lingvistik manbalar*: Ayrim tilshunos olimlar mintaqaning biror tegrasi misolida madaniy o'simliklar nomlarining kelib chiqishini o'rganishgan (Steblin-Kamenskiy 1982). Bu kabi ishlarda eng oldin tarixiy tilshunoslik tahlili bilan birga etnografik, tarixiy, madaniy va etnobotanik bilgilar ham keng jalb qilingan. Ilk bor Pomirda dehqonchilik o'tmishi bilan bog'liq holda bu atamalarning kelib chiqishi atroflicha o'rganilgan. Asosiysi, madaniy o'simliklar nomlarining Pomir tillariga kirib kelishining uchta yo'li belgilangan. Turklarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi atamashunosligining qiyosiy-tarixiy tahlili E.R. Tenishev boshchiligidagi rossiyalik tilshunoslarning salmoqli ishida ochib berilgan (SIGTYA 2001; SIGTYA 2006). Sh. S. Kamoliddin esa turk xalqlarining bir qismi eskidan dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik bilan birga shaharchilik madaniyatiga ham ega bo'lishganini ularning so'z boyligi yordamida asoslab bergan (Kamoliddin 2007; Kamoliddin 2015). Yana boshqa tilshunoslarning ishlarida o'zbek tilidagi dehqonchilik va sug'orish bilan bog'liq atamalar o'rganilgan (Jabborov 2004; Jabborov 2011; Uluqov 2008).

Aslida lingvistik manbalar tahlili birgina tilshunoslar uchun obyekt bo'lsa-da, biroq ko'plab lug'atlar bu borada tilshunos bo'lmagan boshqa mutaxassislariga ham yordam bera oladi. Bizningcha, lingvistik materiallar paleoetnobotanik izlanishlarda birlamchi va ishonchli manba bo'la oladi.

4) *Etnografik manbalar*: O'rta Osiyo dehqonchiligi bo'yicha yetarlicha, juda ko'p etnografik izlanishlar olib borilgani uchun, bu yerda ularga iqtibos berib o'tish bilan cheklanildi. Yer yuzida

ilk dehqonchilik madaniyatining yuzaga kelishi, ilk dehqon jamoalari va xo'jalik o'tmishiga bag'ishlangan umumiy ishlar (Semenov 1974; Markov 1979; Ranniye zemledelsy 1980) bilan birga butun O'rta Osiyo, undagi har bir respublika va alohida tarixiy-madaniy o'lkalar yoki xo'jalik madaniy turlar misolida (Ocherki po istorii xozyaystva 1973; Xozyaystvenno-kulturnye traditsii 1975; Karmysheva 1986: 47–70; Bejkovich 1973: 32–69; Mayskiy 1934: 103–107; Kislyakov 1947: 108–125; Muxiddinov 1973: 99–109; Yershov 1960; Snesev 1960; Rassudova 1971: 274–282; Rassudova 1985: 96–104; Djaxonov 1989; Sazonova 1978; Bolelov 1997) ham anchayin keng o'rganilgan. Ushbu izlanishlarda ko'proq an'anaviy dehqonchilik hamda u bilan bog'liq urf-odat va marosimlar, qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish usullari kabi masalalar etnografik bilimlar yordamida ochib berilgan. Bugungi kundagi ayrim etnografik izlanishlarni ham aytib o'tish kerak (Nasriddinov 2009; Isoqov 2011; Ashirov 2020).

Etnografik manbalarning qiziq tomoni shundaki, dehqonchilik va xo'jalik bilan bog'liq ko'pgina narsalarning qadimgi izlarini bugungi kunda ham uchratsa va qiyoslasa bo'ladi. Biroq dehqonchilikni biror-bir tarixiy-madaniy o'lka misolida o'rganish, ayrim o'ziga xos urf odat va marosimlarning yoritilishini ko'zda tutmaganda, bunday izlanishlar ko'proq tavsifiy mohiyatga egaligicha qolmoqda.

5) *Arxeologik manbalar.* Ushbu manbalar guruhiga dehqonchilikda ishlatilgan ish qurollari, qadimgi ekin yerlari va sug'orish qurilmalarining izlari, sopol, g'isht, devor suvog'i va boshqa buyumlarga yopishgan o'simlik qoldiqlari, turli inshootlar polidagi o'simlik qismlarining izlari, o'simliklarning devor, sopol, qoyatosh, tanga, muhr va boshqalardagi tasvirlari, don dun donalari va meva urug'larining qoldiqlari, qurilishda ishlatilgan somon, yog'och ustunlar va to'sinlarning qoldiqlari, hatto, mato qoldiqlari kabi ko'plab argumentlarni kiritisa bo'ladi.

O'tgan kezlarda dehqonchilikka bag'ishlangan arxeologik izlanishlarning ko'pchiligi qishloq xo'jaligida ishlatilgan ish qurollari va sopollardagi don izlariga oydinlik kiritishga qaratilgan bo'lib, ayrim hollarda qazishmalardan chiqqan don va meva urug'larining nomlarini keltirish bilan cheklanilgan. Kompleks paleoetnobotanik va osteologik tahlillar jalb qilingan izlanishlar deyarli bajarilmadi. Paleoetnobotanik tahlil borasida yuqorida biroz tushuncha berib o'tilgani uchun, o'simliklar va umuman qishloq xo'jaligi bo'yicha izlanishlar davomida osteologik tahlil yoki qadimgi kishilarning suyak qoldiqlarini tahlili nima uchun kerakligiga ham ozroq to'xtalib o'tish kerak.

Arxeologik qazishmalardan chiqqan antropologik qoldiqlar tahlili suyaklarning kimyoviy tarkibi yordamida ozuqa tizimiga oydinlik kiritishda qo'llaniladi. Izlanuvchilar suyak to'qimasining kimyoviy tarkibini izotop tahlili va atomli absorbsion tahlil usullari orqali aniqlaydilar. O'tmishda kishilarning asosan et yemas (vegetarian)lar bo'lganmi yoki etli ozuqalarni yoqtirishganmi, ular qanday kasalliklar bilan og'rikanlar kabi ko'plab savollar ilmiy yechimida bu ikkala usul qo'l keladi. Stomatologik tahlil hamda o'simlik va hayvon to'qimalaridagi elementlar (uglerod, azot, vodorod, kislorod, stronsiy kabi)ning turg'un izotoplari tahlili ovqatlanish ratsioni va kishi umri davomidagi ovqatlanish odatlari, shuningdek, uning geografik mansubligi hamda harakati to'g'risida o'ta muhim ma'lumotlarni bera oladi. Masalan, stronsiy va skelet tarkibidagi kislorod elementlarining izotop tahlili yashash davomida ko'chib kelgan odamlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. DNK tahlili ham individual, ham populyatsion darajadagi genetik farqlarni baholash usuli sifatida tobora keng ommalashmoqda. Shuning uchun, arxeologik suyak qoldiqlaridagi izotoplarni tahlil qilish va ovqatlanish ratsionini qayta tiklash bo'yicha keng qamrovli izlanishlar bajarilgan (Larsen 2002: 120–122; Wright, Yoder 2003: 51–52).

Arxeologlar uzoq vaqt davomida biror qazishmadan chiqqan o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari, ovqat tayyorlash uchun ishlatilgan idishlardagi qoldiqlarga tayanib, o'tmishdagi aholining ovqatlanish ratsionini tiklashga urinib kelishgan. Garchi ushbu arxeologik topilmalar ovqatlanish bo'yicha qandaydir qarashga ega bo'lishga yordam bersa-da, hayvon va o'simlik qoldiqlarining oddiy talqini biror-bir oziq mahsuloti yoki ozuqa moddalarining nisbiy ahamiyatini baholashda to'g'ri ma'lumot bera olmaydi. Bu esa aholi yoki jamoaning ovqatlanish holati to'g'risida cheklangan xulosalar chiqarishga olib keladi (Larsen 2018: 870).

Izlanuvchilar turli tarkibiy qismlar bilan bir qatorda suyaklar va tishlarda turli xil elementlarning turg'un izotoplari, masalan, uglerod (12S, 13S) va azot (14N, 15N) izotoplari borligini tushunib yetishgan. Bundan tashqari, kundalik inson ozuqasi bo'lmish o'simliklar va hayvonlardagi izotop variatsialari inson to'qimalari, suyaklari va tishlarida o'z aksini topadi. Izotoplar bir xil miqdordagi proton va elektronga ega bo'lgan, biroq neytronlar sonida farq qiluvchi kimyoviy elementlardir. Radioaktiv yoki turg'un bo'lmagan izotoplardan farqli o'laroq, xuddi shu elementning turg'un izotoplari vaqt o'tishi bilan transmutatsiyadan o'tmaydi. Ko'pgina elementlar ikki yoki undan ko'p izotop ko'rinishida bo'ladi. Barcha kimyoviy elementlarda bir necha yuzga yaqin turg'un izotoplar bo'lib, 10 ta elementda esa kamida biologik ahamiyatga ega ikkita izotop bor. Ushbu 10 ta elementdan ikkitasi – uglerod (S) va azot (N) o'tmishdagi aholining ovqatlanishi qayta tiklash va talqin qilishda antropologlarning e'tiborini tortgan (Larsen 1999: 271).

Izotop tahlili o'tmishdagi jamiyatning oziklanishi va ovqatlanish bilan bog'liq kengroq va fundamental ijtimoiy muammolar, xususan, S3 asosidagi ozuqaviy diyetadan S4 asosidagi qishloq xo'jaligi (masalan, makkajo'xori yoki tariq) diyetasiga o'tishning oqibatlarini, ko'pincha nisbatan murakkab iyerarxik jamiyatga o'tishni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy tuzilmalardagi o'zgarishlarni yechish uchun ishonarli vosita bo'la oladi. Jumladan, Xitoyning markaziy tekisliklarida bronza davrida tariq (S4 o'simligi) o'rniga bug'doydan tayyorlangan mahsulotlarni (S3 o'simligi) yeyishga o'tilganida, ayollarda bug'doy mahsulotlari yeyishning ko'paygani, hayvon oqsilini yeyish esa kamaygani kuzatilgan. Ovqatlanish bo'yicha bilimlar erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik bilan bog'liq yorqin ifodalangan ijtimoiy siljishni ko'rsatadi. Ushbu yangilik o'sishdagi jinsiy dimorfizmning oshishiga va erkaklar qabri ayollarnikiga qaraganda boylikni ko'proq namoyish qilinishiga mos keladi (Larsen 2018: 867).

Ko'pgina jamiyatlarda bolalarga kattalar singari bir xil ovqat berilmaydi, qolaversa, ular oqsilga hammadan ham ko'proq muhtoj bo'lishiga qaramay, oqsilga boy mahsulotlar bilan ham yetarlicha oziqlanishmaydi. Bolalar ovqatlanishini ma'lum yoshda hosil bo'lgan tishlardagi kollagen va emal tahlili orqali bilsa bo'ladi. Chaqaloqlarning ozuqasiga qo'shimcha holda emizishning davomiyligi ham bolaning suyaklarida o'z aksini topadi. Bugungi kunda arxeologik qoldiqlarda ko'krak suti bilan boqishni o'rganish usullari yosh bola skeletlarini azot izotoplari bo'yicha tahlil qilish bilan ajralib turadi (Wright, Yoder 2003: 52).

O'rta Osiyo dehqonchiligining o'rganilishidagi ayrim muammolar. Sovet ittifoqida botanik va genetiklar arxeologik yodgorliklardan topilgan o'simlik qoldiqlariga qiziqish bildirgan va hatto, ayrimlari (F. H. Baxteev, M. M. Yakubsiner, A. I. Mordvinkina) bu qoldiqlarga oydinlik kiritish bilan shug'ullangan bo'lsalar-da, 1960–1970-yillargacha arxeologik madaniy qatlamlardan chiqqan biofaktlar artefakt o'laroq ishlatilmagan. 1960–1980-yillarga kelib, olib borilgan tizimli izlanishlar tufayli bu sohada bir qancha mutaxassislar yetishib chiqdi, biroq ularning izlanishlari ko'proq Old Osiyo bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik kengaytirilmadi (Sergusheva 2003: 6–7).

Shunga qaramay, sovet va undan keyingi chog'larda O'rta Osiyodagi arxeobotanik izlanishlarning katta qismi Turkmaniston (Joytun, Dam-dam chashma, Erk-qal'a, Govur-qal'a, Mele-Xayron, Oltin-depe, To'g'oloq, Gonur, Anov, Munjuqli-depe, Marv, Tohirboy tepa) tegralariga to'g'ri kelishi kuzatiladi (Xlopin 1964; Lisisyna 1965; Yanushevich 1976; Yanushevich 1977; Janushevich 1978; Janushevich 1984; Lisitsina, Prishchepenko 1976; Lisitsina 1981; Meyer-Melikiyan 1990; Charles, Hillman 1992; Harris, Masson et al 1993; Miller 1993; Moore, Miller, Hiebert, Meadow 1994; Nesbitt 1993; Nesbitt 1994; Boardman 1995; Harris, Gosden 1996; Harris, Gosden, Charles 1996; Herrmann, Kurbansakhatov, Simpson 1996; Boardman 1997; Boardman 1999; Miller, Naomi 1999; Miller 2003; Charles, Bogaard 2005; Miller 2010; Asouti 2010; Charles 2010; Charles, Bogaard 2010; Cywa 2011; Sataeva, Sataev 2014; Satayeva, Satayev 2017). Janubiy Turkmaniston manzilgohlaridan qishloq xo'jaligida ishlatilgan qurollar bilan birga madaniy donlarning qoldiqlari – kuygan holatda, loyga yopishgan don izlari ko'rinishida topilgan. Jumladan, Anov manzilgohining Anov IB qatlamlaridan (Namozgoh I)

yumshoq bug'doy (*Triticum vulgaie* Will) va ikki qatorli arpa (*Hordeum distichum*) donlari chiqqan. M. M. Yakubsiner yumshoq bug'doy bilan birga o'sha kezlarda pakana bug'doy ham yetishtirilgan deb qaragan. Mullali-depe manzilgohining ustki qatlamini qazish chog'ida ikki qatorli arpa (*Hordeum distichum*) va yumshoq bug'doy (*Triticum vulgaie* Will) donlari topilgan. Arpa bug'doyga qaraganda chamasi 30-marta ko'proq bo'lgan. Namozgoh IV–Vga oid yodgorliklar – Oq-depe va Namozgoh-depe manzilgohlarida esa yumshoq va pakana bug'doy, arpa, no'xat, javdar, uzum topilgan. Namozgoh-depeda ham arpaqa qaraganda bug'doy ancha ko'p uchragan. Shuningdek, qadimiy Marg'iyonadagi kech Namozgoh V chog'iga oid Toxirboy manzilgohidan ham o'simlik qoldiqlaridan yumshoq bug'doy topilgan (Xlopin 1964: 93).

Shu o'rinda O'rta Osiyoning eneolit davriga tegishli Anov madaniyati yodgorliklaridagi uzoq yillik qazishmalarda spora-chang tahlillarini o'tkazgan G. N. Lisitsinaning izlanishini alohida ko'rsatish kerak. Olima o'z ishida spora-chang tahlilidan boshqa yana bir paleobotanik usul – qazib olingan toshko'mirlarni mikroskopik belgilar bilan aniqlash usulini ham qo'llagan. Bu usul katta paleogeografik ahamiyatga ega bo'lib, u yodgorlikka yaqin yerda o'sgan va qadimgi aholi ishlatgan daraxt turlarining tarkibini oydinlashtirishga yordam beradi. Cho'l iqlimi sharoitida aynan daraxt turlari asosiy qurilish va yoqilg'i materiali bo'lgani uchun, ko'mirni aniqlash natijalari katta ahamiyatga egadir (Lisisyna 1965).

Sovet va mustaqillik yillarida O'rta Osiyoda olib borilgan arxeobotanik izlanishlar ko'lami bo'yicha Turkmanistondan keyingi o'rinda Qozog'iston (Juvon-to'ba, Karaspan-to'ba, Begash, Tuzusay, Taroz) (Bashtannik 2007; Bashtannik 2008; Frachetti, Spengler, Fritz, Mar'yashev 2010; Spengler, Chang, Tourtellotte 2013; Bashtannik, Voyakin, Buranbayev 2015), O'zbekiston (qadimgi Xorazm, Qovunchitepa, Sopolli, Jarqo'ton, Xolchayon, Qoratepa, Munchoqtepa, Toshbuloq) (Grigoryev 1940: 9–10; Rojanovskiy 1956; Fedorova 1960: 203–206; Baker, Khozhaniyazov et al. 2017; Baker, Kidd et al. 2017; Spengler, Bullion et al. 2018; Hermes, Frachetti et al. 2018; Baker, Marston 2019; Wu, Miller, Crabtree 2015) va Tojikiston (Mug'qal'a, Bozor-dara, Sarazm) (Danilevskiy, Kokonov, Nikitin 1940; Yakubov 1979; Bubnova 1987; Isakov 1994; Spengler, Willcox 2013; Spengler et al. 2014) hududlari turadi. Bugungacha eng kam arxeobotanik izlanishlar Qirg'iziston (Ayg'irjal)da o'tkazilgan (Matuzeviciute, R. C. Preece et al. 2017; Chang, Ivanov et al. 2023). Mustaqillik yillarida mintaqa bo'ylab bajarilgan deyarli barcha izlanishlar chet ellik arxeobotaniklar bilan birgalikda olib borilgan bo'lib, haligacha bu kabi qo'shma loyihalar davom etmoqda (Brite, Khozhaniyazov et al. 2017; Chen et al. 2020). O'rta Osiyo bo'yicha qilingan arxeobotanik izlanishlarning umumiy manzarasi qisqacha shulardan iborat bo'lib, quyida ana shu izlanishlarning ayrimlariga to'xtalinadi.

Bugungi O'zbekiston yerlarida sug'orma dehqonchilikning boshlanishi mil. old. II mingyillik boshlariga – qadimgi Baqtriya o'lkasiga to'g'ri keladi (Asqarov 1973: 21–32; Askarov, Abdullayev 1983: 9–16). Janubiy O'zbekistonning Sopollitepa manzilgohida uy-joylar qurishda somon qo'shilgan g'ishtlardan foydalanilgani bu yerda madaniy donlardan bug'doy va arpaning ko'p yetishtirilganini ko'rsatadi. Somonning ko'p miqdordagi zahirasi va undan keng foydalanish ekin yetishtirishda sezilarli yutuqlarga erishilganini bildiradi. Qolaversa, somondan to'qilgan idishlar va maxsus don omborxonalarida ko'p don zaxiralari – bug'doy va arpaning topilishi ham buni tasdiqlaydi (Askarov 1977: 117–118).

2017-yili o'zbek arxeologlari Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Paleobotanika va paleoantropologiya ilmiy tadqiqot instituti xodimlari bilan birgalikda O'zbekistondagi arxeologik yodgorliklarda, jumladan, Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan To'da g'oridagi neolit davri yodgorligida, bronza davri yodgorliklari bo'lmish Sopollitepa va Jarqo'ton shahar xarobalarida, Xolchayon yodgorligida paleoetnobotanik izlanishlar olib borishdi. Natijada Sopollitepa yodgorligidan ilk bor paxta chigiti topildi. Shu choqqacha fanda paxta yetishtirish markazlari deb Misr va Hindiston e'tirof etilgan bo'lsa, endilikda O'rta Osiyo, to'g'rirog'i, O'zbekiston ham qadimdan paxtachilik markazlaridan biri bo'lganligiga oydinlik kiritildi (Asqarov, Sing, Hasanov 2020).

1940–1950-yillarda O'rta Osiyodagi ayrim keng qamrovli arxeologik ekspeditsiyalarga tabiiy fanlar mutaxassisleri yollangani kuzatiladi. 1935-yilda botaniklar – akademik R. R. Shreder va professor K. A. Flyaksberger Toshkent vohasining Qovunchitepa yodgorligidan chiqqan arpa (*Hordeum distichum*), yumshoq bug'doy (*Triticum vulgare*), shaftoli, jiydaning kuygan donlarini tahlil qilishgan (Grigoryev 1940: 9–10). O'tgan yuzyillikning 30-yillarida Tojikistonning Mug'qal'asidan topilgan gilos, uzum, olma, shaftoli, o'rik mevalari, arpa, tariq, loviya kabi donli ekinlar, bodom, yong'oq, paxta qoldiqlari botaniklar tomonidan o'rganilgan (Danilevskiy, Kokonov, Nikitin 1940: 479–480; Yakubov 1979: 102, 110, 114). S. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasida arxeologik madaniy qatlamlardan chiqqan o'simlik qoldiqlari changi tahlil qilingan (Fedorova 1960: 203-206). Shuningdek, Xorazmning VI–VIII yuzyilliklar qatlamlaridan arxeologik qazishmalar chog'ida bug'doy, arpa, sholi, uzum, shaftoli va gilos, qovun, tarvuz va bodring urug'lari topilgan (Usmanova 1963: 80).

Toshkent vohasidagi dehqonchilik madaniyati borasidagi keyingi xulosalar ko'proq qishloq xo'jaligi ish qurollari (ko'proq temirdan yasalgan), irrigatsiya tizimi (asosan kanallar), don-dun mahsulotlari saqlanadigan o'ralar va ayrim yirik sopol idishlarga tayanilib chiqarilgan. Xususan, akademik Yu. F. Buryakov voha aholisi Burganli madaniyatidan boshlab o'troq va yarim o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangani to'g'risida to'xtamga kelgan. VI–VIII yuzyilliklarga kelib esa Chochda bug'doy, tariq, no'xat va bog'dorchilik ekinlari yetishtirilganini ko'rsatuvchi yozma manbalardagi ma'lumotlar hamda shu chog'larga oid shahar va manzilgohlardan chiqqan don, meva va poliz ekinlari urug'lari qoldiqlariga suyangan holda aholining xo'jaligi va turmush tarzi yoritilgan. Shuningdek, ekin maydonlari va qishloq xo'jaligi sug'orish bazasining kengaygani, chig'ir yordamida sug'orishning yo'lga qo'yilgani va don qirg'ichlari o'rniga tegirmon toshlari ishlatila boshlagani kabi masalalar ham vohadagi qishloq xo'jaligi bo'yicha birmuncha tasavvurlar uyg'otadi (Buryakov 1982: 134; Buryakov, Filanovich 1999: 86).

Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilikning tarqalishi mil. old. II mingyillik o'rtalariga borib taqaladi (Anarboyev 2006: 10–11). Vodiyning qadimgi dehqonchilik vohalaridan bo'lmish Chust va Dalvarzin yodgorliklaridagi qazishmalar chog'ida o'ralardan bug'doy va arpa urug'lari, yerga ishlov berish va hosilni yanchishda ishlatilgan ish qurollari va buyumlar topilgan. Arxeolog Yu. A. Zadneprovskiyga ko'ra, Farg'ona vodiysining qadimgi qishloq xo'jaligida tariq o'ziga xos o'rin egallagan (Zadneprovskiy 1962: 74–75). Qolaversa, vodiyning ayrim qabr inshootlaridan chiqqan o'simlik qoldiqlari ham o'rganilgan (Rojanovskiy 1956). G. A. Brikinaning Farg'ona vodiysining janubi-g'arbiy qismi (Qirg'iziston)dagi Xo'ja-Baqirg'on vodiysidagi bir qancha arxeologik yodgorliklar – Qorabuloq qasri, Oqtepa manzilgohi, Tag'ob qishlog'idagi manzilgoh, Andarxon manzilgohi va Qayrag'och manzilgohida olib borgan arxeologik izlanishlari tufayli bu yerlarda o'tmishda yashagan aholining xo'jaligi yoritilgan. Qorabuloqdagi qazish ishlarida kuygan bug'doy donlari topilgan. O'rganilgan barcha yerlarda, ayniqsa, Qayrag'ochda juda ko'p don qirg'ich va qo'l tegirmonlari chiqqan (Brykina 1982: 140). VI–VIII yuzyilliklarda asosiy donli ekinlardan bug'doy va arpa, shuningdek, tariq va jo'xori, dukkaklilardan esa loviya, no'xatning turli navlari, fasol, yasmiq keng tarqalgan edi. Texnik ekinlardan za'faron va paxta yetishtirilgan. Yog' mahsulotlari olingan ekinlar orasida kunjut birinchi o'rinni egallagan, kanop ham yetishtirilgan (Brykina, Gorbunova 1999: 24).

Farg'onada polizchilik bog'dorchilik bilan birgalikda olib borilgan. Poliz ekinlaridan tarvuz, qovun yetishtirilganini qazishmalar chog'ida topilgan ularning urug'lari ko'rsatadi. Bog' va poliz ekinlaridan qovun, bodring, qovoq, sholg'om, qalampir, sabzi, piyoz, sedana, sarimsoq va kashnich (koriandr) kabilar ekilgan. Mevali daraxtlar orasida olma va nok, ayniqsa, uzum keng tarqalgan edi. Bundan tashqari, behi, shaftoli, olxo'ri, tut, yong'oq yetishtirilgan (Brykina, Gorbunova 1999: 24). Tor daryo vodiylarida, xususan, Xo'ja-Baqirg'on daryo vodiysidagi "tag'ob" deb ataladigan toshloq yerlarga uzum ekilgan. O'rik va shaftoli ham yetishtirilgan (Brykina 1982: 140).

Qang' saltanatida chorvachilik xo'jaligi ustuvor bo'lgani holda qishloq xo'jaligi ham rivojlangan, tariq eng muhim ekinlardan biri bo'lgan. Tariq quruq iqlimga arpa va bug'doydan ko'ra yaxshiroq chidamli, chunki uning ildizlari tuproqdan namlikning eng kichik izlarini ham tortib ola oladi. Sug'orish bilan yiliga ikki marta tariq hosilini olsa bo'ladi. Bu donning salbiy tomonlaridan biri shuki, u begona o'tlardan qo'rqadi: yoki begona o'tlarni tozalash, yoki toza tuproqqa ekishni talab qiladi. Buni Aris daryosi bo'yidagi Qoraspan-to'be manzilgohining so'nggi Qang' qatlamidan olingan bilgilar ko'rsatadi. O'rta Sirdaryo va Qorator tog' etaklarida asosiy ekin turi tariq bo'lganini al-Yaqubiyning "Turkistonda tariq ekuvchi dehqonlardan boshqa dehqonlar yo'q" yoki al-Umariyning "ko'pincha ular tariq ekishadi, tariq bilan oziqlanadilar" degan iboralaridan ham bilsa bo'ladi (Bashtannik 2006: 102). Qoraspan-to'beda ikkinchi o'rinda qurg'oqchilikka chidamli boshqa ekin – ikki qatorli arpa bo'lgan. Tuproqning quruqligi va taqchilligi tufayli uning mayda donli navlari yetishtirilgan. Arpa ertagi (sovuqqa oson chidamli) va ertapishar ekinga mos kelib, bu yozgi qurg'oqchilikning cho'qqisiga chidamaslik imkonini bergan. Bug'doyning ko'proq yumshoq va pakana navlari ham o'stirilgan.

Janubiy Qozog'iston shahar xarobalaridan guruchning juda oz topilgani bu mahsulotning import qilinganini ko'rsatadi. Dukkaklilardan sun'iy sug'orishni talab qiladigan namlikni yaxshi ko'radigan no'xat topilgan. Xitoy yilnomalaridagi qaydlarni qazishmalar chog'ida uzumning ikki xil – sharob va yeyish uchun mo'ljallangan navlarining ko'plab urug'lari topilgani ham tasdiqlaydi. Qorator tog'lari yovvoyi uzumning kelib chiqqan va madaniylashtirilgan yerlaridan biri sanaladi. Olxo'ri ham o'stirilgan (Yatsenko, Avizova i dr. 2020: 28).

Yettisuvda ham dehqonchilik va chorvachilik shahar va o'troq aholi turmushida muhim o'rin egallab, ular donli ekinlardan bug'doy va tariq yetishtirishgan, bog'dorchilik va polizchilik bilan shug'ullanishgan. Shaharlarda sharob ishlab chiqarilgani to'g'risidagi bilgilarni epigrafik topilmalar ko'rsatadi. Navekat va Novopokrovka shahar xarobalaridagi xumlarining chekkasidagi sug'd yozuvlariga ko'ra, sharob solingan bu idishlar sovg'a o'laroq ishlatilgan (Baypakov 1999: 162). Taroz va Navekat shaharlarida o'rik, uzum, qovun va tarvuz urug'lari, bug'doy, tariq va guruch urug'lari topilgan (Brykina 1999: 162).

1980-yillardan arxeologlarning botanik, zoolog, geograf va geologlar bilan birgalikdagi kompleks ekspeditsiyalari yana jonlanadi. Xususan, mashhur Selungur g'orining antropogen konlarini uzoq muddatli o'rganish jarayonida arxeologik, litologik, geologik-geomorfologik, biostratigrafik, mineral-petrografik va gidrogeokimyoviy kabi kompleks izlanishlar birgalikda olib borilgan (Toychiyev, Kraxmal 2004). Bilamizki, palinologik tahlil butun o'simlik qoplaminin tarkibini tavsiflab beradi. Shuning uchun, So'x daryosi havzasidagi ilk antropogenez yodgorliklari joylashgan So'x, Chashma (O'zbekiston) va Selungur (Qirg'iziston)dagi tabiiy vaziyatni qayta tiklash, o't o'simliklari, shuningdek, daraxtlar va butalarning gulchaglari tarkibidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun arxeologlar botaniklar yordamida spora-chang tahlilini o'tkazishgan (Grigina, Trofimov 1984: 47). Selungur g'orining paleobotanik izlanishlari Rossiya Fanlar akademiyasining Geografiya institutida K. V. Kremenskiy tomonidan o'tkazilib, qayin, funduq, qoraqarag'ay, qarag'ay, jo'ka, eman, uzum, yong'oq, tamorisk ustunlik qiladigan daraxt turlaridan gulchaglar borligini ko'rsatdi. Keyinroq O'zR FA Botanika instituti ilmiy xodimi G. X. Xolmuhamedova ham Selungur g'oridan olingan palinologik tahlillar yordamida u yerda qayin, archa, qarag'ay, jo'ka, eman, yong'oqning gulchaglari borligini aniqlagan (Xalmuxamedova 1988). Bu izlanishlar umumlashmasiga doir Janubiy Farg'onadagi ilk antropogen jarayonlar to'g'risida paleobotanik manbalarga tayanilgan ish chop etilgan (Islamov, Kraxmal va tb. 2001).

1990-yillarning boshlari va o'rtalaridan O'rta Osiyoning Anov, Joytun, Gonur-depe, Jarqo'ton, Sarazm kabi ayrim arxeologik yodgorliklarida flotatsiya texnologiyasi qo'llanila boshlandi (Spengler 2014).

Shunday qilib, o'tgan yuzyillik o'rtalaridan O'rta Osiyoning noyob arxeologik yodgorliklari (masalan, Mug' qal'asi) yoki keng qamrovli kompleks ekspeditsiyalar (Xorazm kompleks

ekspeditsiyasi yoki Selungurga o'xshash)da turli soha mutaxassisleri birgalikda ish olib borishgani hamda ularning izlanishlari ko'pincha uzluksiz chop etib borilgani kuzatiladi. Biroq ulardan farqli holda boshqa ko'pgina odatdagi arxeologik izlanishlarda esa madaniy qatlamlardan topilgan kuygan bug'doy, arpa, sholi donlari, uzum, shaftoli va gilos, qovun, tarvuz va bodring urug'larining uchrashi yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan, xolos.

Aslida O'rta Osiyo ilmiy adabiyotlaridagi arxeobotanik izlanishlarga bag'ishlangan ma'lumotlar ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri sanalashtirilmagan, fotosuratlar bilan ta'minlanmagan va o'simliklarni aniqlash mezonlari tavsif etilmagan. Ustiga-ustak, arxeologik qazishmalarda qo'lga kiritilgan paleoetnobotanik qoldiqlar bo'yicha izlanishlar natijalari ko'pincha nufuzli nashrlarda chop ham etilmagan (Spengler 2014).

Sovet ittifoqi davrida dehqonchilik madaniyati yuzasidan arxeobotanik usulni qo'llash mintaqada fanida unchalik keng yoyilmagan bo'lsa-da, biroq boshqa manbalarga tayanilgan juda ko'plab ishlar bajarilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi o'tmishining ayrim davrlari va alohida tarixiy madaniy o'lkalarning xo'jaligi V. V. Bartold, B. V. Andrianov, A. M. Beleniskiy, A. I. Bilolov, I. M. Botanin, B. G'ofurov, Ya. G'. G'ulomov, Yu. A. Zadneprovskiy, F. A. Zaslavskaya, G. B. Zdanovich, P. P. Ivanov, B. A. Litvinskiy, V. M. Masson, N. Mahmudov, A. M. Muxtorov, H. H. Negmatov, V. A. Panov, I. P. Petrushevskiy, S. P. Tolstov, O. D. Chexovich, A. Yu. Yakubovskiy, O'. Alimov va boshqalar tomonidan o'rganilgan (Bartold 1963; Bartold 1964: 435–448; Bartold 1965: 97–236; Tolstov 1948; Tolstov 1962; Petrushevskiy 1960; Andrianov 1978; Alimov 1984). Mustaqillik yillarida ham O'zbekiston bo'ylab qishloq xo'jaligining yuzaga kelishiga bag'ishlangan bir qancha ishlar chop etilgan (Musayev 2005; O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari 2006; Is'hoqov 2011).

Ko'pgina izlanishlar O'rta Osiyodagi biror o'lkaning sug'orilish o'tmishi, irrigatsiya tizimi yoki umumiy xo'jaligi va iqtisodiyotiga bag'ishlangan. Mintaqa arxeologlari qazishmalar chog'ida chiqqan sug'orish qurilmalari va qishloq xo'jaligi qurollariga tayanib, biror-bir tarixiy-madaniy o'lkadagi dehqonchilik va chorvachilik borasida bir xulosaga kelishgan. O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi madaniyatining o'rganilishini muallif o'z izlanishlariga tayangan holda quyidagi guruhlariga ajratdi: 1) Sug'orish qurilmalari va ekin yerlari; 2) Qishloq xo'jaligi ish qurollari; 3) Xo'jalik va iqtisodiyot.

1) *Sug'orish qurilmalari va ekin yerlari.* O'rta Osiyoning alohida tarixiy-madaniy o'lkalari misolida sug'orish va irrigatsiya tizimi yoritilgan (Nepomnim 1940; Andrianov 1960: 172-190; Latynin 1962; Jabborov 1964; Abdurahmonova 1972; Irrigatsiya Uzbekistana 1975; Nabiye 1975; Bilalov 1980; Groshev 1985; Qosimov 1988; Eshonkulov 1989; Qodirov 1998). Xususan, mintaqadagi ilk dehqonchilik madaniyati bugungi Turkmaniston yerlariga to'g'ri kelishi ko'zda tutilsa, irrigatsiya o'tmishi bilan bog'liq ko'pgina ishlar ham xuddi shu yerlarda olib borilgan. G. N. Lisitsina O'rta Osiyoning janubida neolit yoki ilk eneolitdoyoq (Namozgoh II–IV, mil. old. IV mingyillikning o'rtalari) oddiy sug'orish qurilmalari bo'lganini uqdirgan (Lisitsina 1969; Lisitsina 1981: 350–358). S. P. Tolstov Xorazmning sug'orilish o'tmishi, bu yerlardagi tarixiy-madaniy jarayonlar – dehqonchilikning paydo bo'lishi, ilk shahar madaniyati, davlatchilikning shakllanishi, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan (Tolstov 1948; Tolstov 1948a; Tolstov 1962). Xorazmdagi ilk dehqonchilikning yuzaga kelishi borasida Ya. G'. G'ulomov va B. V. Andrianovning izlanishlari ham ahamiyatli (G'ulomov 1959; Andrianov 1969; Andrianov 1978). So'nggi yillarda Turkmaniston va Xorazmdagi qadimgi sug'orish tizimi va ayrim biofaktlar o'lkaning qishloq xo'jaligini yoritishda qo'l kelgan (Brite 2016). Zarafshon vodiysining qadimgi va o'rta asrlardagi sug'orishi bilan bog'liq o'tmishini o'rganishda akademik A. R. Muhammadjonovning izlanishlaridan so'ng (Muxamedjanov 1978; Muxamedjanov 1997) bir qancha ishlar qilindi (Stride, Rondelli, Mantellini 2009; Adilov, Babayev 2011; Isomiddinov 2011).

O'rta Osiyoning janubida paleolit jamiyatining iqtisodiy tizimida madaniy o'simliklar borasida tortishuvlarda qo'l keladigan ishonchli artefaktlardan biri qadimgi sug'orish kanallari sanalgan.

Xususan, oddiy sug'orish qurilmalari O'rta Osiyoning janubida neolit yoki eneolitdayoq (Namozgoh II–IV, mil. old. IV mingyillik o'rtalari) bo'lgani ilgari surilgan (Lisisyna 1969; Lisisyna 1981). Mintaqaning shimoli – Qozog'istondagi Aqtas 2 manzilgohida ham sug'orish kanallari topilgan (Akishev 1969). O'tror vohasidagi dehqonchilik manzilgohlarida olib borilgan qazishmalarda bu yerning aholisi chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bilan birga sug'orma motiga dehqonchiligi bilan ham shug'ullanib, kompleks xo'jalik yuritishgani oydinlashgan. Sug'orish qurilmalarining qoldiqlari va tosh motigalarga qaraganda, I–VI yuzyilliklarda dehqonchilikda ishlab chiqaruvchi kuchlar unchalik yuqori bo'lmaganidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan faqat o'z ehtiyojlarini qondirishga imkon bergan bo'lsa, shu davrning oxirlarida ekin maydonlarining kengayishi aholi xo'jaligida sug'orma dehqonchilikning roli oshganini ko'rsatadi (Akishev, Baypakov, Yerkovich 1972).

2) *Qishloq xo'jaligi ish qurollari.* Dehqonchilik o'tmishini yoritishda eng birinchi va haligacha keng qo'llaniladigan artefaktlardan biri bu – o'roq, yorg'uchoq va boshqa shu kabi ish qurollarining talqinidir. R. Shpengler to'g'ri uqdirganidek (Spengler 2014), sovet va post-sovet kezaridagi dehqonchilik bo'yicha arxeologik izlanishlarning deyarli ko'pchiligi birgina qishloq xo'jaligi ish qurollari (Rudenko 1962; Berdyev 1968; Korobkova 1969) yoki sopollardagi don izlarini aniqlashga qaratilgan. Shu choqqacha trasologiya ma'lumotlarini jalb qilmasdan, vizual, morfologik tahlilga tayanilib, xulosalar chiqarilgan va ko'pincha hali ham shunday davom etmoqda. Biroq tashqi ko'rinishiga qarab chiqarilgan xulosalar har doim ham birdan-bir to'g'ri to'xtam bo'la olmaydi (Yepimaxov 2010: 36). Chunki birorta ish qurolining vazifasini oydinlashtirishda ikkilaniladi, masalan, o'roqsimon pichoqni birgina ekinlar uchun emas, balki hayvon terisini shilishda ham ishlatiladi bo'ladi. Yoki biror jamoada dehqonchilikning bo'lgan-bo'lmaganini asoslash uchun qayroqtoshlarni keltirish yanada muammoliroq, chunki qayroqtoshlardan yovvoyi o'simliklarni maydalashda ham foydalanilgan bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi ish qurollarining o'zidan argument o'laroq foydalanish munozarali va ishonchsizroq bo'lsa-da, boshqa arxeobotanik usullar bilan qiyoslanilganda, ajoyib natijalarga erishsa bo'ladi (Spengler 2014).

3) *Xo'jalik va iqtisodiyot.* Monografiyalarda biror-bir o'lka yoki arxeologik yodgorlikning xo'jaligi nomi ostida dehqonchilik, ovchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va tijorat masalalari yoritilgan. Bu jarayonda juda oz hollarda mahalliy yoki chetdan mutaxassislar – paleobotanik, paleozoologlartaklifetilib, ular bilan birgalikda ishlangani kuzatiladi. Ko'pgina sovet adabiyotlarida, albatta, xo'jalikka alohida qism ajratilgan va xuddi shu yerda arxeologik qazishmalardan chiqqan organik qoldiqlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Xususan, usunlarning xo'jaligida chorvachilik ustuvor bo'lgani holda yordamchi xo'jalik o'laroq dehqonchilikning ham bo'lganligini Shimoliy Qirg'izistondagi qabr yodgorliklaridan chiqqan nozik, yupqa sopol idishlar, kuygan don qoldiqlari va don qirg'ichlari tasdiqlagan. Ili daryosining o'ng qirg'og'idagi usunlarning qabrlaridan tagi yumaloq sopol idishlar va qo'y suyaklari topilgan. Ilk qabrlar mil. old. III–II yuzyilliklarga tegishli bo'lib, ularda tagi yumaloq yoki biroz yassi bo'lgan ikki va undan ortiq idishlar bilan ko'mish kuzatiladi. Mil. old I – mil. I yuzyilliklarda va ayniqsa, mil. II–III yuzyilliklarda qabrga qo'yilgan idishlar soni sezilarli ko'payadi. Ularning ko'pchiligi tagi tekis, yassi bo'lib, bu usunlar xo'jaligida jiddiy o'zgarish yuz bergani bilan bog'liq (Akishev, Kushayev 1963: 261–262).

*Xulosa.* Paleoetnobotanika birgina kishilik o'tmishini emas, balki uning buguni va kelajagini o'rganishga sezilarli ulush qo'sha oladigan fan sohalaridan biridir. Chunki paleoetnobotanik bilimlar iqlim o'zgarishlariga kishilarning moslashuvchanligini oldindan bilishda boy va ishonchli manba bo'la oladi, o'tmishdagi qishloq xo'jaligi va yerdan foydalanishning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tizimlari to'g'risida ham amaliy izlanishlarni amalga oshira oladi. Bu esa kelajakda Yer yuzida yoki uning biror burchagida qishloq xo'jaligi va umuman madaniy o'simliklar yetishtirish bo'yicha oldindan bashorat (prognoz) qilishga yo'l ochadi.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda arxeobotanik izlanishlar tarixshunosligi tahlili bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi: o'tmishda yashagan kishilar yuritgan xo'jalik tarzi – dehqonchilik va chorvachilik, qolaversa, oziqlanish masalasi izlanuvchilarni anchadan beri qiziqtirib kelganiga

qaramay, shu choqqacha O'rta Osiyo davlatlari, shular sirasida O'zbekiston izlanuvchilari ham ko'proq bu muammoni yoritishda yozma manbalar, etnografik va lingvistik materiallarga suyanishgan. O'tgan yuzyillik o'rtalaridan O'rta Osiyoning noyob arxeologik yodgorliklari hamda keng qamrovli kompleks ekspeditsiyalarida ko'proq turli soha mutaxassislari birgalikda ish olib borishgani kuzatiladi. Biroq ko'pgina boshqa oddiy, noyob bo'lmagan odatdagi arxeologik yodgorliklarda esa madaniy qatlamlardan topilgan don-dunning kuygan qoldiqlari, mevalar va mevalarning urug'lari uchrashi shunchaki eslatib ketilgan, xolos. Qishloq xo'jaligi o'tmishi bo'yicha sovet adabiyotlaridagi ishlarda arxeologlar mehnat qurollari va madaniy donlarning qoldiqlariga, sopol idishlarning shakli va miqdoriga ko'ra yoki somon qo'shilgan g'ishtlarga tayanib, mintaqada dehqonchilikning bo'lganligi to'g'risida bir xulosa chiqarishgan.

Zamonaviy asbob-uskunalar va texnikalar bilan jihozlangan laboratoriyalarning yo'qligi, G'arb davlatlari va AQSHdagi singari arxeologiya faniga tabiiy fanlarning eng so'nggi yutuqlari deyarli jalb qilinmaganligi O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'tmishini tiklashda biofaktlarning bosh manba bo'lib xizmat qilmasligiga olib kelgan edi. XX yuzyillikning 80–90 yillaridan boshlab esa O'rta Osiyoning janubiy hududlaridagi arxeologik yodgorliklarda G'arbiy Yevropa izlanuvchilarining sovet olimlari bilan birgalikda o'tkazgan arxeobotanik izlanishlari bu bo'shliqni biroz bo'lsa-da to'ldira boshladi.

Keyinroq O'rta Osiyo davlatlarining mustaqillik yillaridagi deyarli barcha izlanishlar ham chet ellik arxeobotaniklar bilan birgalikda olib borilgan va bugungi kungacha bu kabi qo'shma loyihalar davom etmoqda. Achinarlisi shundaki, mustaqillikni qo'lga kiritganiga 30 yildan oshgan bo'lsa-da, haligacha O'rta Osiyoning mahalliy izlanuvchilari orasidan arxeobotanik mutaxassislar yetishib chiqmayapti. Aslida shu choqqacha xalqaro qo'shma loyihalar doirasida mahalliy mutaxassislarni tayyorlab berish ham ko'zda tutilishi kerak edi, natijada bugungi kunga kelib hech bo'lmaganda har bir respublikada kamida bir-ikkita arxeobotanik shakllangan bo'lardi.

O'zbekistonda botanik, zoolog, geolog, arxeolog va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan tabiiy fanlar mutaxassislarining o'zaro yaqin aloqalarini yo'lga qo'yish orqali jahondagi yangi fan yo'nalishlarini tadbiq etish zarurati allaqachon tug'ilgan. Shundan kelib chiqilsa, bu yo'nalishda zamonaviy asbob-uskunalar va texnik jihozlar bilan ta'minlangan laboratoriyalar hamda ularda ishlay oladigan mutaxassis kadrlar masalasi ko'ndalang bo'ladi. Buning uchun eng oldin O'zbekiston muzeylari fondlari va boshqa yerlarda saqlanayotgan arxeobotanik, arxeozoologik va inson osteologiyasi bo'yicha materiallar kolleksiyalarini o'rganish va ularni tavsiflash, paleoetnobotanika, paleozoologiya va paleoantropologiyaning tadqiqot uslublari (metodikasi) ni o'rganish, chet ellardagi eng oldi laboratoriyalarda mahalliy yosh izlanuvchilarni o'qitish va malakasini oshirish kabi ishlarni yo'lga qo'yish kerak. Mana shu muammolar o'z yechimini topsagina, O'rta Osiyo *aholisining hayotni ta'minlash tizimini to'laqonli va ishonchli ochib berishga erishsa bo'ladi.*

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

*Алтомши. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М. Зарифов. Тошкент: Шарқ, 1998. 400 б.*

*Согдийские документы с горы Муг. Вып. II. Юридические документы и письма / Пер. и коммент. В. А. Лившица М.: Восточная литература, 1962. 222 с.*

*Согдийские документы с горы Муг. Вып. III. Хозяйственные документы / Перевод и комментарии М. Н. Боголюбова и О. И. Смирновой. М.: Восточная литература, 1963. 132 с.*

*Абдурахмонова Т. Ўзбекистонда ирригациянинг ривожланиши. Тошкент: Ўзбекистон, 1972. 37 б.*

*Адилов Ш. Т., Бабаев С. Т. Историческая гидрография Западного Согда (по археолого-топографическим данным и на основе сведений из книги Мухаммада ан-Наршахи "Тарих-и Бухоро") // Археология Узбекистана. № 2 (3). Самарканд, 2011. С. 27–52.*

*Акишев К. А. Зимовки-поселения и жилища древних усуней // Известия АН КазССР. № 1. Алма-Ата: Наука, 1969. С. 29–47.*

- Акишев К. А., Кушаев Г. А.* Древняя культура саков и усуней долины реки Или. Алма-Ата: Академия наук Казахской ССР, 1963. 320 с., табл.
- Акишев К. А., Байпаков К. М., Ерзакович Л. Б.* Древний Отрар (топография, стратиграфия, перспективы). Алма-Ата: Наука, 1972. 256 с.
- Алавия М.* Ўзбек халқ маросим кўшиқлари / Масъул муҳаррир: Т. М. Мирзаев. Тошкент: Фан, 1974. 224 б.
- Алимов Ҳ.* Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик хўжалиги тарихи. Тошкент: Фан, 1984.
- Андрианов Б. В.* Изучение каракалпакской ирригации в бассейне Каны-Дарьи в 1956–1957 гг. // Материалы Хорезмской экспедиции / Под общ. ред. С. П. Толстова. Вып. 4. М.: Акад. наук СССР. Ин-т этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая, 1960. С. 172–190.
- Андрианов Б. В.* Древние оросительные системы Приаралья. М.: Наука, 1969. 252 с., 3 л. карт.: ил.
- Андрианов Б. В.* Земледелие наших предков / Отв. ред. В. М. Массон. М.: Наука, 1978. 168 с.
- Анарбоев А.* Ўзбекистонда илк суғорма деҳқончиликнинг шаклланиши ва антропоген ландшафт-ни ташкил топиши // Ўзбекистон худудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдиэлари ва замонавий жараёнлар. Тошкент, 2006. 10–11 бетлар.
- Антонова Е. В.* Обряды и верования первобытных земледельцев Востока. М.: Наука, 1990. 287 с.
- Аскарлов А.* Сапаллитепа. Ташкент: Фан, 1973. 172 с., илл.
- Аскарлов А.* Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. 232 с.
- Аскарлов А., Абдуллаев Б. Н.* Джаркутан / Отв. ред. Э. В. Ртвеладзе. Ташкент: Фан, 1983. 59 с., илл.
- Аширов А.* Ўзбек маданиятида сув. Тошкент: Akademnashr, 2020. 240 б.
- Байпаков К. М.* Семиречье // Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. Т. 20 / Отв. ред. Г. А. Брыкина. М.: Наука, 1999. С. 163–174.
- Бартольд В. В.* Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинение. Т. 1. М.: Восточная литература, 1963. С. 45–600.
- Бартольд В. В.* Хлопководство в Средней Азии с исторических времен до прихода русских // Сочинение. Т. 2. Ч. 1. М.: Восточная литература, 1964. С. 435–448.
- Бартольд В. В.* К истории орошения Туркестана // Соч. Т. 3. М.: Восточная литература, 1965. С. 97–236.
- Баштанник С. В.* Земледельческая культура Южного Казахстана эпохи средневековья. Кемерово: КемГУКИ, 2007. 127 с., илл, таб.
- Баштанник С. В., Воякин Д. А., Буранбаев Р. Н.* Археоботанические исследования цитадели средневекового городища Тараз в 2014 г. // Вестник археологии, антропологии и этнографии. № 2 (29). Тюмень, 2015. С. 178–182.
- Бежкович А. С.* Историко-этнографические особенности киргизского земледелия // Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана / Отв. ред. С. М. Абрамзон, А. Оразов. Ленинград: Наука, 1973. С. 32–69.
- Бердыев О.* Чакмаклы-депе – новый памятник времени Анау IА // История, археология и этнография Средней Азии. К 60-летию со дня рождения С. П. Толстова. М.: Наука, 1968. С. 26–34.
- Билалов А. И.* Из истории ирригации Уструшаны: (материальная культура Уструшана). Вып. 1. Душанбе: Дониш, 1980. 191 с.
- Болелов С. Б.* Земледелие древнего Хорезма: формы организации производства // Этнографическое обозрение. № 2. М., 1997. С. 63–75.
- Брыкина Г. А.* Юго-Западная Фергана в первой половине I тысячелетия нашей эры / Отв. ред. Е. Е. Неразик. М.: Наука, 1982. 206 с.
- Брыкина Г. А., Горбунова Н. Г.* Фергана // Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье / Отв. ред. Г. А. Брыкина. Т. 20. М.: Наука, 1999. С. 93–113.
- Бубнова М. А.* К вопросу о земледелии на Западном Памире в IX–XI вв. // Прошлое Средней Азии: археология, нумизматика и эпиграфика, этнография. Душанбе: Дониш, 1987. С. 59–66.
- Буряков Ю. Ф.* Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982. 212 с.

*Буряков Ю. Ф., Филанович М. И.* Чач и Илак // Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. Т. 20 / Отв. ред. Г. А. Брыкина. М.: Наука, 1999. С. 78–92.

*Вавилов Н. И.* Центры происхождения культурных растений. Труды по прикладной ботанике и селекции. Ленинград: Госуд. изд-во, 1926. 248 с., 7 л. ил., карт.: ил.

*Григина О. М., Трофимов А. К.* Палинологическая характеристика опорного разреза сохской свиты (Южная Фергана) // Геология кайнозоя и новейшая тектоника Тянь-Шаня. Фрунзе: Илим, 1984. С. 29–49.

*Григорьев Г. В.* Каунчи-тепа (раскопки 1935 г.). Ташкент: изд-во Узб. филиала Акад. наук СССР, 1940. 64 с.: ил., черт.

*Грошев В. Л.* Иригация Южного Казахстана в средние века. Отв. ред. К.А. Акишев. Алма-Ата: Наука, 1985. 156 с.

*Данилевский В. В., Коконов В. Н., Никитин В. А.* Исследование растительных остатков из раскопок согдийского замка // Растительность Таджикистана и ее освоение. Душанбе: Тр. Таджикистан базы АН СССР, 1940. С. 484–490.

*Демидов С. М.* Растения и животные в легендах и верованиях туркмен. Серия «Этнография туркмен». Вып. 1. М.: Старый сад, 2020. 446 с.

Shefer E. 1981. Zeymal' E. V. and Lubo-Lesnichenko E. I. (transl.). *Zolotye persiki Samarkanda. Kniga o chuzhezemnykh dikovinah v imperii Tan (Golden peaches of Samarkand. A book about foreign curiosities in the Tang Empire)*. Moscow: Nauka Publ., 608. (In Russian).

SIGTYA 2001. In E. R. Tenishev (ed.). *Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskikh yazykov. Leksika (Comparative historical grammar of Turkic languages: Vocabulary)*. 2nd ed. Vol. 4. Moscow: Nauka Publ., 822. (In Russian).

SIGTYA 2006. In E. R. Tenishev, A. V. Dybo (ed.). *Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskikh yazykov. Pratyurkskiy yazyk osnova. Kartina mira pratyurkskogo ehtnosa po dannym yazyka (Comparative historical grammar of Turkic languages. Prathurk language foundation. Picture of the world of the Prathurk ethnic group according to the language)*. Vol. 6. Moscow: Nauka Publ., 908. (In Russian).

Snesarev G. P. 1960. *Obryad zhertvoprinosheniya vody u uzbekov Khorezma, geneticheskoy svyazannyj s drevnim kul'tom plodorodiya (The rite of water sacrifice among the Uzbeks Khorezm, genetic associated with the ancient cult of fertility)*. In *Materialy Khorezmskoj Ehkspeditsii (Materials of the Khorezm expedition)*. Issue 4. Moscow, 198–202. (In Russian).

Steblyn-Kamenskij I. M. 1982. *Ocherki po istorii leksiki pamirskikh yazykov. Nazvaniya kul'turnykh rastenij (Essays on the history of vocabulary of Pamir languages. The names of cultivated plants)*. Moscow: Nauka Publ., 167. (In Russian).

Tojchiev Kh. A., Krakhmal' K. A. 2004. In D. A. Alimova, A.A. Anarbaev (ed). *K probleme khronologii i stratigrafii antropogena severo-vostoka Uzbekistana (To the problem of chronology and stratigraphy of anthropogen northeast of Uzbekistan)*. In *Arkheologiya i istoriya Tsentral'noj Azii. K 70 letiyu so dnya rozhdeniya akademika Akademii nauk Respubliki Uzbekistan Yu.F. Buryakova (Archeology and History of Central Asia. By the 70th anniversary of the birth of the Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Yu.F. Buryakova)*. Samarkand, 143–146. (In Russian).

Tolstov S. P. 1948. In M. N. Tihomirov (ed.). *Drevnij Khorezm (The Ancient Khorezm)*. Moscow: Moscow State University Publ., 352. (In Russian).

Tolstov S. P. 1948a. *Po sledam drevnekhorezmijskoj tsivilizatsii (In the footsteps of ancient Khorezmian civilization)*. Moscow-Leningrad: Acad. Sciences of the USSR Publ., 322. (In Russian).

Tolstov S. P. 1962. *Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta (According to the ancient Delta Oksa and Yaksart)*. Moscow: Vost. lit. Publ., 324. (In Russian).

Uluqov N. M. 2008. *O'zbek tili gidronimlarining tarixij-lisonij tadqiqi (Historical-linguistic study of hydronyms of the Uzbek language)*. Tashkent: Fan Publ., 192. (In Uzbek).

Usmanova Z. I. 1963. *Ehrkkala (Erkkala)*. In *Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoj arkheologicheskoy kompleksnoj ehkspeditsii (Proceedings of the South Turkmenistan archaeological complex expedition)*. Vol. 12. Ashgabat: Academy of Sciences Turkmen SSR Publ., 80–89. (In Russian).

Vavilov N. I. 1926. *Tsentry proiskhozhdenij kul'turnykh rastenij. Trudy po prikladnogo botanike i seleksii. (Centers of the origin of cultivated plants. Proceedings on applied botany and selection)*. Leningrad: Gosud. izd-vo Publ, 248. (In Russian).

Yakubov Yu. 1979. In B.Ya. Stavisky (ed.). *Pargar v VII – VIII vv. n. e. (Verkhnij Zeravshan v epokhu rannego srednevekovya) (Pargar in the 7th–8th centuries n. e. (Upper Zeravshan in the Early Middle Ages)*. Dushanbe: Donish Publ., 218. (In Russian).

Yanushevich Z. V. 1976. *Kul'turnye rasteniya yugo-zapada SSSR po paleobotanicheskim issledovaniyam (Cultivated plants of the south-west of the USSR according to paleobotanical research)*. Kishinyov: Shtiintsa Publ., 214. (In Russian).

Yanushevich Z. V. 1977. *O nakhodke yachmenya na poselenii Altyn-depe (On the discovery of barley at the settlement of Altyn-Depe)*. In *Karakumskie drevnosti (Karakum Antiquities)*. No. 5. Ashgabat, 162–169. (In Russian).

Yatsenko S. A., Avizova A. K., Torgoev A. I., Saipov A., Kulish A. V., Kitov E. P., Rogozhinskij A. E., Smagulov E. A., Erzhibitova A. A., Torezhanova N. Zh., Tur S. S., Ivanov S. S. 2020. *Arkheologiya i istoriya Kangyujskogo gosudarstva (Archaeology and history of Kangju state)*. Shymkent: A'lem Publ., 216. (In Russian).

Zhabborov I. 1964. *Zhilovlangan daryolar o'lkasi (O'zbekistonda sug'orish tarixidan lavhalar) (Land of tamed rivers (Essays from the history of irrigation In Uzbekistan)*. Tashkent: O'zbekiston Publ., 41. (In Uzbek).

Zhabborov X. 2004. *O'zbek tilining sug'orish leksikasi (Irrigation lexicon of the Uzbek language)*. Karshi: Nasaf Publ., 155. (In Uzbek).

Zhabborov X. 2011. *O'zbek tilining dehqonchilik leksikasi (Agricultural lexicon of the Uzbek language)*. Tashkent: Fan Publ., 160. (In Uzbek)

Zhilich S. V., Shnajder S. V., Rudaya N. A. 2019. *K voprosu o vydelenii pyl'tsy kul'turnykh zlakov na arkheologicheskikh pamyatnikakh na primere pamyatnika Kurteke (Tadzhikistan) (On the issue of isolation of pollen from cultivated cereals at archaeological sites on the example of the Kurteke site (Tajikistan)*. In *Problemy arkheologii, etnografii, antropologii Sibiri i sopredel'nykh territorij (Problems of archeology, ethnography, anthropology of Siberia and adjacent territories)*. Vol. XXV. Novosibirsk, 388–395. (In Russian).

Zho'raev M. 2008. *O'zbek mavsumij marosim fol'klori (Folklore of Uzbek seasonal ritual)*. Tashkent: Fan Publ., 291. (In Uzbek).

Zadneprovskij Yu. A. 1962. *Drevnezemledel'cheskaya kul'tura Fergany (Ancient agricultural culture of Fergana)*. Moscow – Leningrad: AN SSSR Publ., 328. (In Russian).

*O'zbek xalq maqollari (Uzbek folk proverbs)*. 2003. In T. Mirzaev et all (compl.). Tashkent: Sharq Publ., 510. (In Uzbek).

*O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixij ildizlari va zamonaviy zharayonlar (Historical roots of agricultural culture in the territory of Uzbekistan and modern processes)*. 2006. Toshkent. (In Uzbek).

G'ulomov Ya. G'. 1959. *Xorazmning sug'orilish tarixi (Khorezm irrigation history)*. Tashkent: UzSSR FA Publ. (In Uzbek).

Qodirov A. 1998. *O'zbekiston irrigatsiya tarixidan lavhalar (Essays from the history of irrigation In Uzbekistan (from the middle of the 19th century to the 1920s)*. Tashkent: Abdulla Qodirij nomidagi xalq merosi Publ. (In Uzbek).

Qosimov J. 1988. *Namangan vohasining sug'orilish tarixidan (From the history of irrigation of the Namangan oasis)*. Tashkent: Fan Publ., 121. (In Uzbek).

#### **Internet resources:**

Asqarov A., Sing Zh., Hasanov M. 2020. *Ipak va pahta 4 ming jillik tarixga ega (Silk and cotton have a history of 4 thousand years)*. In «New Uzbekistan» newspaper. URL: <https://yuz.uz/news/ipak-va-paxta-4-ming-yillik-tarixga-ega> (In Uzbek).

Bioarxeologiya laboratoriyasi Nizomi (Bioarchaeology Laboratory Charter). Available by URL: <https://archaeology.uz/storage/Бўлим%20ва%20лабораториялар/Биоархеология/Низом.pdf> (In Uzbek)

Bioarxeologiya laboratoriyasi yo'l xaritasi (Bioarchaeology Laboratory Roadmap). Available by URL: <https://archaeology.uz/storage/Бўлим%20ва%20лабораториялар/Биоархеология/Йўл%20харитаси%20Биоархеология%282%29.pdf> (In Uzbek).

Bioarxeologiya laboratoriyasi Dasturi (Bioarchaeology Laboratory Program). Available by URL: <https://archaeology.uz/storage/Бўлим%20ва%20лабораториялар/Биоархеология/Лаборатория%20дастури.pdf>. (In Uzbek).

Kamoliddin Sh. S. 2007. Kul'tura osedlykh tyurkov Srednej Azii (The culture of the settled Turks of Central Asia). Available by [http://www.eurasica.ru/articles/uzbeks/shskamoliddin\\_kultura\\_osedlyh\\_tyurkov\\_sredney\\_azii/](http://www.eurasica.ru/articles/uzbeks/shskamoliddin_kultura_osedlyh_tyurkov_sredney_azii/) (In Russian).

2019 jil 21 sentyabrdagi 792-son "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (Resolution No. 792 of September 21, 2019 «On Fundamental Improvement of Archaeological Research»). Available by URL: <https://lex.uz/docs/4524476>. (In Uzbek).

---

## **BIOFACTS IN THE RESTORATION OF THE LIFE SUPPORT SYSTEM OF THE ANCIENT POPULATION OF CENTRAL ASIA**

© 2023. *Munira Khatamova*

*National Center of Archaeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

---

**Key words:** Central Asia, bioarchaeology, laboratory, paleoethnobotany, archaeobotany, agriculture, human osteology, biofacts, macro-residue, micro-residue, plant seeds, wood, phytoliths, spore-pollen analysis, flotation, isotope analysis, irrigation devices, tools, economy, economics.

In the developed world, archaeologists reconstruct past life through the preserved remains of human activities that have survived in various forms. This process uses an interdisciplinary approach based on the experience of various specialists including botanists, geologists, ecologists, and zoologists. While studying the subsistence system of ancient populations, knowledge of the environment, such as climate, animal distribution, ancient and modern flora, and soils, becomes essential. Plant remains included wild and cultivated species extracted by flotation methods and actual seeds found on dry monuments or in charred form. Stable carbon isotopes of skeletal collagen in the bones of ancient humans provide essential information about nutrition in antiquity. Thus, biofacts representing plant remains help address anthropological questions about the role of agricultural products and plants in general in early human communities. During the Soviet and the Independence periods, researchers relied more on written, ethnographic, and archaeological sources to reconstruct the history of agriculture in Central Asia. The lack of laboratories with contemporary equipment and the fact that the latest advances in natural sciences, as in the West and the United States, were hardly applied to archaeology resulted in ignoring the biofacts as a key source of knowledge to reconstruct Central Asia's agricultural past. So far, all archaeobotanical studies have been conducted in collaboration with foreign researchers, as local archaeobotanical specialists have not yet been trained in Central Asia. The article offers a brief overview of archaeobotanical research conducted in Central Asia and some relevant challenges.

## YOSH TAQIQOTCHILAR MINBARI

---

ТРИБУНА МОЛОДЫХ  
ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

YOUNG RESEARCHERS  
ROSTRUM

### SAZOG'ON-3 NEOLIT MAKONI SAZOG'ON MADANIYATI YODGORLIKLARI TIZIMIDA (MADANIY-DAVRIY, TIPOLOGIK TAHLIL, TEXNOLOGIYA)

© 2023. *Xolmatova Zarifa*  
*O'zRFA Milliy arxeologiya markazi*

---

**Kalit so'zlar:** Tosh asri, neolit, O'rta Zarafshon, Sazog'on madaniyati, Sazog'on-3, "madaniy voha", tosh industriyasi, tosh qurollari, madaniy-davriy, tipologik tahlil, xom ashyo, texnologiya.

Mazkur maqolada O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' tizmasi shimoliy yon bag'rida joylashgan Sazog'on-3 makoni moddiy madaniyati yoritilishi nazarda tutilgan. Bunda aniqlangan moddiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan birga tosh qurollarining tipologik tahlili, yasalish texnikasi, xom ashyosi, ishlov berilishi usullari masalalariga e'tibor qaratilgan. Yodgorlik 2017-yildan buyon N. O'. Xolmatov rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda. Qazilma ishlari jarayonida 100 dan ortiq tosh artefaktlar, qiziqarli sopol idish parchalari qo'lga kiritilgan. Garchi, bu materiallar asosida yodgorlik madaniy -davriy talqini borasida dastlabki mulohazalar bildirilgan bo'lsada, biroq tosh industriyaning o'ziga xos xususiyatlari, tosh qurollarning tipologik tahlili, ularning yasalish texnikasi, ishlov berilishi usullari, xom ashyosi to'g'risida to'laqonli ma'lumotlar berilmagan. Shu bois, yangi materiallar asosidagi ushbu ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilishi maqolaning maqsadi hisoblanadi. Tosh artefaktlar O'rta Osiyo neolit yodgorliklari, xususan Sazog'on madaniyati yodgorliklari materiallari kontekstida qiyosiy tahlil etildi. Tip varaqa ishlab chiqildi, tipologik tahlil asosida yodgorlik tosh industriyasining o'ziga xos xususiyatlari asosida Sazog'on-3 yodgorligining madaniy-davriy masalasi haqidagi ma'lumotlar tizimlashtirildi. Shu asnoda, Sazog'on-3 makoni materiallari asosida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirish mumkin: 1. Sazog'on-3 yodgorligi kishilik tarixi tosh asri neolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli makon hisoblanadi. 2. Yodgorlik tosh industriyasining xarakteri, tosh qurollarining tipologik tahlili, tosh qurollarining yasalish texnikasi, ishlov berilishi usullari, xom ashyosi ma'lumotlari uni Sazog'on madaniyatiga tegishli ekanligini ko'rsatdi.

---

### СТОЯНКА САЗАГАН 3 В СИСТЕМЕ ПАМЯТНИКОВ САЗАГАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ (КУЛЬТУРНО-ПЕРИОДИЧЕСКИЙ, ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, ТЕХНОЛОГИЯ)

© 2023. *Холматова Зарифа Нормаммадовна*  
*Национальный археологический центр УзРФА*

---

**Ключевые слова:** каменный век, неолит, Средний Зарафшан, сазаганская культура, Сазаган 3, «культурный оазис», каменная индустрия, каменные орудия труда, культурно-периодический, типологический анализ, сырье, технология.

В настоящей статье освящается материальная культура неолитической стоянки Сазаган 3, расположенной на северной стороне хребта Каратапа в Среднезарафшанском оазисе. Наряду с определением ее специфических черт, особое внимание уделяется вопросам типологического анализа, технологий изготовления, сырья, способов обработки каменных орудий. С 2017 г. памятник исследует Н. У. Холматов. В результате исследований обнаружено более 100 каменных артефактов, а также вызывающие интерес фрагменты керамики. На основе этих материалов была определена культурно-периодическая принадлежность памятника, однако не до конца установлены специфические особенности каменной индустрии, типологический анализ каменных орудий, технологии их изготовления, способы обработки сырья. Целью статьи является введение в научный оборот информации, основанной на новых материалах. Произведен сравнительный анализ каменных изделий с учетом материалов неолитических памятников Средней Азии, особенно памятников сазаганской культуры. На основе типологического анализа, с учетом специфики каменной индустрии, разработан тип-лист, систематизированы сведения о культурно-периодической характеристике памятника Сазаган 3. В связи с этим на основе материалов стоянки Сазаган 3 можно сделать следующие выводы: 1. Памятник Сазаган 3 – стоянка, материальная

культура которой принадлежит неолитическим сообществам каменного века. 2. Характер монументальной каменной индустрии, типологический анализ каменных орудий, их техника изготовления, способы обработки, данные о сырье показали принадлежность памятника к сазаганской культуре.

*Kirish.* O'rta Zarafshon vohasi Turkiston va Zarafshon tog' tizmalari oralig'ida submeridian yo'nalishida cho'zilgan ko'rinishga ega. Voha janub tomondan Zarafshon tog' tizmasi g'arbiy qismi bilan chegaralangan (Chaqilqalin, Qoratepa, Ziyadin-Zirabuloq).


Qoratepa tog' massivi – Zarafshon tog' tizmasining O'rta Zarafshon vohasiga to'g'ri kelgan tarkibiy qismi hisoblanib, uzunligi taxminan 50 kilometr, kengligi 30–35 kilometr dan iborat tog', tog' oldi mintaqasi hisoblanadi. Uning baland cho'qqisi – Kimqo'ton bo'lib (dengiz sathidan balandligi 2188 metr), uning janubiy yon bag'ri Qashqadaryo vohasiga nisbatan yotiq, shimoliy yon bag'ri esa Zarafshon vohasiga nisbatan tikroq holatda kelib tutashgan. Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri o'z suvini Zarafshon vohasi tomon oqizuvchi yon qayirlar, chuqur yon daralarga ega bo'lgan yirik soylar (Ohalik, Miranqul, Tepaqul, Egriqulcha, Sazog'on, Oqsoy kabi) bilan kesilgan. Kishilik tarixi tosh davriga oid yodgorliklar joylashuvi va tadqiqotlari shu soylarning yon terrasalari sathlari va ular yon daralaridagi g'or va ungurlar bilan bog'liq (1-rasm).

O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridagi bu soylar bilan bog'liq bulgan tosh asri yodgorliklarini o'rganish ishlari Samarqand davlat universiteti arxeologiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillari 2-yarmidan e'tiboran Samarqand davlat universiteti arxeologlari tomonidan Sazog'onsoy yon qayirlarida Sazog'on 1,2 makonlarining kashf etilishi va ular qazilmalarida qiziqarli tosh qurollari, sopol buyum parchalari to'plami qo'lga kiritilishi bilan boshlangan (Lev 1969: 3–68). Ushbu neolit yodgorliklarining keyingi yillardagi qazilma ishlari bevosita M. D. Djurakulov, N.Xolmatovlar tomonidan amalga oshirilgan va shu jarayondagi arxeologik qidiruvlar natijasida 30 dan ortiq yangi yodgorliklar ham arxeologik xaritaga olingan. Mazkur yodgorliklar jumlasidan bo'lgan Sazog'on 2, Jangal 1, Tepaqul 3–5, Lolab, Olmabuloq, Qora Kamar, Ochilg'or makonlarida bevosita qazilma ishlari olib borilib, katta hajmdagi mezolit, neolit davri jamoalarining moddiy madaniyatiga tegishli bo'lgan materiallar qo'lga kiritilishiga erishilgan. Shu materiallar asosida O'rta Osiyo miqyosidagi neolit davri madaniyatlari (Joyitun, Kaltaminor, Hisor, Markaziy Farg'ona) tizimida yangi, mustaqil Sazog'on madaniyati ajratilib, ilmiy muamalaga kiritilgan Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan mazkur mintaqada kishilik tarixi tosh asri taraqqiyoti bosqichlari bo'lgan paleolit (Olmabuloq), mezolit (Zamichatosh, Ohalik, Sazog'on 1, Qorakamar, Ochilg'or makonining pastki madaniy qatlami) neolit (Sazog'on neolit madaniyatining yodgorliklari) davrlari jamoalari moddiy madaniyatiga tegishi bo'lgan yodgorliklarning mavjudligidan kelib chiqib, bu muzofot ibtidoiy odamlar uzluksiz yashagan va mahalliy negizda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan madaniyatlar yaratilgan "madaniy voha" bo'lgani alohida ta'kidlangan (Djurakulov, Xolmatov 1991: 3–122; Xolmatov 2020: 3–383).

*Materiallar.* Sazog'on-3 makoni tadqiqotining dastlabki natijalariga ko'ra, yodgorlik Sazog'on madaniyati jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli ekanligi aniqlangan (Xolmatov, Qurbonboyev, Karimov: 2023:18–22).

Sazog'on-3 makoni. Sazog'on-3 neolit makoni Sazog'on 2 makonidan Sazog'onsoy bo'ylab chamasi 500–550 metr yuqorida soyning chap yon qayirida joylashgan. Qayirning maydon sathi taxminan 80 x 130 metr o'lchamni tashkil etadi va soy tomon birmuncha qiyalik ko'rinishli bo'lib, uning balandligi dengiz sathidan 963 metrni tashkil etadi.

Sazog'on-3 makonida hammasi bo'lib 105 metr kvadratga yaqin maydon sathida madaniy qatlam tadqiq etilib, 1000 dan ortiq muhim arxeologik ashyolar qo'lga kiritilgan. Arxeologik ashyolar tosh buyumlar, sopol buyum parchalari, hayvon, parranda suyak qoldiqlari, chig'anoq kabi topilmalardan iborat. Shundan 174 tasini bevosita tosh buyumlari tashkil etadi. Tosh buyumlar chaqmoqtosh, chaqmoqtoshli-slanes, xalsedon, kvars kabi tog' jinslaridan tayyorlangan.



1-rasm Sazagon madaniyati yodgorliklarining zhoylashuv xaritasi


Рис. 1. Картографирование памятников Сазганской культуры

Figure 1. Mapping of sites of the Sazagan culture

Sazog'on-3 makoni tadqiqoti jarayonida qo'lga kiritilgan tosh buyumlarning tipologik tahlili ularni quyidagi guruhlarga ajratish imkonini berdi (2–4 rasmlar): 1. Ishlov berilmagan otmeplar, ishlab chiqarish chiqindilari (30 dona); 2. Ishlov berilmagan paraqalar (10 dona), shulardan mikroparaqalar (2 dona); 3. Tosh o'zaklari (5 dona) va toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan tosh qurollar (19 dona); 4. Otmepdan yasalgan qurollar (72 dona); 5. Paraqadan yasalgan qurollar (38 dona), jumladan mikroparaqa qurollar (13 dona); 6. Boshqa tipdagi qurollar: qayroqtosh qurollari (20 dona), yorg'uchoqlar (3 dona).

Toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan predmetlar (19 dona). Bular tosh o'zaklarini tayyorlash maqsadida toshni dastlabki yo'nishlardan hosil bo'lgan tosh buyumlari hisoblanadi.

Tosh o'zaklari. Sazog'on makoni 3 tadqiqoti jarayonida 5 dona tosh o'zaklari qo'lga kiritilgan. Ularning deyarli barchasi pichoqsimon paraqalar ajratib olishga mo'ljallangan tosh o'zaklari hisoblanadi. Tosh uchirindilar ajratib olinganlari sanoqli, kam. Tosh o'zaklarini tipologik jihatdan quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: 1. Prizmasimon tosh o'zaklari; 2. Konussimon ko'rinishdagi tosh o'zaklari; 3. Mikro tosh o'zaklari.




2-rasm. Sazogon-3 maqoni. Paraqadan qurilgan kurollar

Рис. 2. Стоянка Сазоган 3. Орудия из пластин

Figure 2. Sazagan 3. Plate tools

Prizmasimon tosh o'zaklari – 3 dona. Bu tosh o'zaklari pichoqsimon paraqalar ajratib olishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi tiplarga bo'linadi: 1. Bir taraflama ishlov berilgan prizmasimon tosh o'zaklari. Bular tosh o'zaklari to'plamida 2 donani tashkil etadi. 2. Gir aylanasiga ishlov berilgan prizmasimon tosh o'zaklari (1 dona). Ular bir zarb ishlov maydoniga ega bo'lgan, paraqa va mikroparaqa uchirib olishga mo'ljallangan tosh o'zaklari hisoblanadi. Tosh o'zaklarining zarb maydoni sathi ancha qiyalikga ega. Ikkalasi to'q qoramtir rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, 1 tasi oqimtir jigarrangli slanesdan yasalgan.

Konussimon tosh o'zaklari – 1 dona. Mazkur tosh o'zagi paraqa, mikroparaqalar uchirib olishga mo'ljallangan. Uning zarb ish maydoni sathi biroz qiyalikga ega. Gir aylanasiga bo'ylab mikroparaqalar uchirib olinganligi izlari saqlanib qolgan, to'q qoramtir rangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.



3-rasm. Sazogon-3 makoni. Uchirindidan yasagan kurollar

Рис. 3. Стоянка Сазган 3. Орудия из отщепов

Figure 3. Sazagan 3. Flake tools

Mikro tosh o'zaklari – 1 dona. Uning bir tomonidan mikroparaqalar uchirib olingan. Kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.

Ishlov berilmagan otseptlar, ishlab chiqarish chiqindilari – 30 dona. Bu tipga kiruvchi tosh buyumlarini ko'pchiligini ishlab chiqarish chiqindilar tashkil etadi. Tosh qurollari yasash uchun mo'ljallab tayyorlanganlari kamroq. Ular turli o'lchamga ega.

Ishlov berilmagan paraqalar va mikroparaqalar (10 dona: shundan 1 donasi mikroparaqalar). Bu tipdagi tosh buyumlarning ko'pchiligini ishlab chiqarish chiqindilar, nisbatan kamrog'ini qurol yasashga mo'ljallab tayyorlangan buyumlar tashkil etadi.

Sazog'on-3 yodgorligi tosh buyumlarining ichida 110 dona (tosh o'zaklari, toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan tosh buyumlardan tashqari) tosh qurollari mavjud. Ular tipologik jihatdan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Ishlov berilgan paraqa qurollari – 38 dona, (umumiy ishlov berilgan tosh qurollari soniga nisbatan) (2-rasm). Mazkur qurollar shakli va ishlov berilishi usullari bilan quyidagi tiplarga bo'linadi: 1. Yelka tomoniga ishlov berilgan paraqalar (21 dona); a) bir yon qirrasiga ishlov berilgan paraqalar – 15 dona ;v) ikki yon qirrasiga ishlov berilgan paraqalar – 6 dona. Paraqalar yon qirralariga asosan tik yoki paraqaning yelka tomonga qarab yassi tarzda ishlov berilgan. Paraqalarning qirralariga uzunasiga uzluksiz yoki qisman uzulish bilan hamda kam holatlarda tishsimon, yengil chuqurchasimon ko'rinishda ishlov berilgan. Mazkur paraqa qurollar asosan kulrang, to'q yashil rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, kamroq miqdorda chaqmoqtosh, xalsedon, kvarts, slaneslardan yasalgan. Ushbu tip qurollari ichida yelka qismi bir yon qirrasiga ishlov

berilgan mikroparaqalar (9 dona), ikkala yon qirrasiga ishlov berilgan mikroparaqalar (3 dona) ham mavjud. Mikroparaqalar yon qirralariga juda yupqa, qisman uzilish bilan ishlov berilgan. 2. Astar tomoniga ishlov berilgan paraqalar (5 dona). Ularning barchasiga bir yon tomoniga ishlov berilgan. Mazkur paraqalarga 2 xil usulda ishlov berilganligi kuzatiladi: 1. Yon qirralari bo'ylab tumtoqlangan holda ishlov berilgan; 2. Yon qirralaridan astar qismiga chuqur kirib borgan holda ishlov berilgan. Ba'zan yon qirralarida qarama-qarshi tarzda kertilib ishlov berilgan holatlar ham kuzatiladi. Yodgorlikdan bu tipdagi qurollarning topilishi juda ahamiyatli bo'lib, o'z yasash xom ashyosi, shakli, ishlov berilishi usullariga ko'ra Quyri Zarafshon, Qizilqum hududi Kaltaminor yodgorliklari paraqa qurollariga juda o'xshash (Gulyamov, Islamov, Askarov 1966: 3–119). Bu so'zsiz, Kaltaminor va Sazag'on jamoalarining o'zaro madaniy aloqalarining mahsulidir. Mazkur tipdagi mikroparaqalarga asosan bir yon qirrasiga ishlov berilgan. Paraqa qurollar ichida 4 dona butun holatda saqlangan paraqa qurollari ham bor. Paraqa qurollarining ko'pchiligi jigarrangli, to'q jigarrangli, to'q yashil chaqmoqtoshdan va kulrang rangli, oqimtir sariq rangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan. Yon tomonlari bo'yicha qarama-qarshi holatda ishlov berilgan paraqalar – 2 dona va shulardan 4 – donasi mikroparaqalar hisoblanadi. Yon qirralari bo'yicha ishlovlar uzunasiga berilgan, lekin ular yoppasiga bo'lmasdan, uzuq – yuluq holatdadir.

Paraqa qurollar kolleksiyasida yon tomonidan yelka qism hosil qilgan holda to'mtoqlanib bir qirradi bo'yicha ishlov berilgan paraqalar ham uchraydi. Lekin, ular aniq shaklga ega emas. Ikkinchi qirradi paraqaning yelka tomonidan yassi holda pasayib kelib, o'tkir kirra hosil qilgan bo'lishi mumkin.

Paraqa qurollari to'plamida ustki kesim qismi bo'yicha ishlov berilgan paraqalar ham uchraydi. Bular 2 – dona bo'lib, qurolga ustki kesimi to'g'ri holatda ishlov berilgan. Bu turdagi paraqa qurollari O'rta Osiyo pasttekislik mintaqasi Kaltaminor jamoalari yodgorliklari tosh industriyasiga xos qurollar hisoblanadidir.

Sazag'on-3 yodgorligi paraqa qurollari to'plamida geometrik shakldagi mikrolitlar uchratilmadi. Yon qirralari bo'yicha ishlov berilgan chuqurchalarga ega bo'lgan paraqalar – 3 dona. Bu paraqa qurollarda bir qirradi bo'yicha bitta yoki ikki qirrasida bittadan ishlov berilgan o'ydim joyi bor,.. Paraqadan yasalgan qirg'ichlari – 3 dona. Paraqaning ust kesim qismida yoysimon ko'rinishda ish maydoni hosil qilinib qirg'ich qurollari yasalgan. Ular jigarrang va to'q kulrang chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan. Paraqa qurollarning ichida qovurg'asimon paraqalar – 2 donani tashkil etadi. A. V. Vinogradov ko'rsatishicha, mazkur paraqalar tosh o'zakning zarb maydoni gir atrof qirrasini to'g'irlyotgan paytda uchib ketadigan paraqalardir. Shu bois qovurg'asimon paraqalarni



4-rasm. Sazagon-3 maqoni. Qayroqtosh qurollar

Рис. 4. Стоянка Сазаган 3. Галечные орудия

Figure 4. Sazagan 3. Pebble tools



5-razm. Sazogon-3 makoni. Qayroqtosh qurollar  
 Рис. 5. Стоянка Сазган 3. Галечные орудия  
 Figure 5. Sazagan 3. Pebble tools


kertish, yotig'iga ezish, ba'zi holatda qarama-qarshi yo'nalishli, hatto tishsimon ko'rinishli usulda ishlov berilgan. Ularni ish maydonlari xarakteriga qarab tipologik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin: tekis, biroz kemptikli ish maydoniga ega bo'lgan uchirindi qurollari; yon qirralarida o'yiqlik qismi, chuqurchalariga ega bo'lgan uchirindi qurollar; yon qirralarining turli joylariga bir-birlaridan ajratilgan hamda qarama-qarshi holda ishlov berilgan uchirindi qurollari; yon qirralari bo'yicha ishlov berilgan uchirindi qurollari. Mazkur uchirindi qurollarning aksariyati kulrang, ya'ni to'q va ochiq kulrang hamda yashil rangli chaqmoqtoshli-slaneslardan yasalgan. Jigar rangli chaqmoqtosh, slanes, xalsedon, kvarsit, kvarslardan esa kam miqdorda yasalgan.

Uchirindilardan yasalgan qurollar ichida qirg'ich qurollari ham uchraydi – 4 dona (3-rasm). Texnik-tipologik jihatdan qirg'ich qurollarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) Tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ich qurollari (vysokiye skrebki). Ular nisbatan kattaroq o'lchamli 2,5 smdan – 3,5 smgacha, vazmin tosh bo'lagi yoki uchirindidan yasalgan. Bu qirg'ichlar ish maydoni yon qirralari tik holatda qurolning astar qismiga nisbatan vertikal ko'rinishda yoysimon shaklda uzun, ensiz holda iz qoldiruvchi kertuv usulida ishlov berilgan. Shu shakli bilan ko'pincha o'zaksimon qirg'ichni ham eslatadi (so'nggi paleolit, mezolit davri yodgorliklari tosh industriyasiga xos). Ular kulrang, jigarrangli chaqmoqtoshli-slanesdan, jigarrangli chaqmoqtoshdan yasalgan; 2) past bo'yli tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar. Ish maydoni kertuv usulida astar qismiga nisbatan vertikal holatda, yoysimon, nisbatan qiyshiqroq, ba'zan juda kam holatda to'g'ri shaklda hosil qilingan. Ularning o'lchamlari 2,5–3 santimetr atrofida. Mazkur qurollar aksariyati kulrang va yashil rangli chaqmoqtoshli-slanesdan, kam miqdorda to'q yoki och sariq jigarrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan; 3) Yassi yoki taypoqlik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ich qurollar. Ish maydonlari ko'pincha yoysimon bo'lib, ularga kertuv yoki ezish usulida ishlov berilgan. Ularning o'lchami 2,5–3,0 santimetrlar atrofida. Qirg'ich qurollari asosan chaqmoqtoshli-slanes, slanes, kvarsit, kam miqdorda chaqmoqtosh, xalsedondan yasalgan.

Ponasimon qurollar – 1 dona. Uncha katta bo'lmagan o'lchamli uchirindidan yasalgan. Uchirindi kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan uchirib olingan. Ma'lumki, ponasimon qurollar shu qurol uchun mo'ljallab uchirib olingan, maxsus uch qismi ikki tomonidan chaqmoqlanib yupqalashtirilgan uchirindidan, tasodifiy tarzda tosh o'zagidan bo'laklanib tushgan uchirindidan yoki uch qismi yupqalashgan va tekis qirraga ega bo'lgan tosh o'zaklari bo'lagidan tayyorlangan. Ponasimon qurollarning ish maydoni nisbatan qalinroq, mustahkam bo'lishi lozim, sababi ular turmushda kesgich, silliqlash quroli sifatida ishlatilgan. Tekis qirrali ish maydoni qurolning

tosh qurollarni yasash bilan bog'liq tosh buyumlar sirasiga ham kirgizish mumkin (2-rasm). Arxaik ko'rinishdagi enli paraqalar – 2 dona. Bu qurollar yon qirralari bo'yicha to'qmoqlangan usulda ishlov berilgan. To'q jigarrangli, kulrangli chaqmoqtoshli slaneslardan yasalgan.

Sazog'on-3 makoni tosh qurollarining ko'pchiligini uchirindidan yasalgan qurollar tashkil etadi (72 dona). Ularning aksariyatiga yon qirralari bo'yicha turlicha usulda ishlov berilib, ish maydoni hosil qilingan (3-rasm). Tik



6-rasm. Sazogon madaniyati yodgorliklari tosh sanoatida oldingi tarixiy davrlar (sunggi paleolit, mezolit) va tosh kurollari evolyutsiyasining kuzatilishi

Рис. 6. Преемственность традиций и эволюция (верхний палеолит, мезолит) каменной индустрии на стоянках сазоганской культуры

Figure 6. Continuity of traditions and evolution (Upper Paleolithic, Mesolithic) of the stone industry at the sites of the Sazagan culture

yelka qismi tomon chuqurroq kirib borishni ta'minlovchi kertuv usulida ishlov berish yo'li bilan hosil qilingan. Ish maydoniga ikki old va astar tomonidan ishlov berilishi bu qurol uchun xos xususiyatdir. Ish maydoni ba'zan qarama-qarshi yo'nilgan kertuv usulida ishlov berilishi bilan ish tig'i o'tkirlanib turgan. Mutaxassislar fikricha, ish maydoni dastlab uchirindining qulay qirrasida bo'yicha old va astar tomonlaridan chaqmoqlanib yupqalastirilib tayyorlanadi va uning uch tekis qismi yana o'tkirlashtiriladi. Uning o'lchamlari uzunasiga 3–3,5 santimetr, eni 1,5–2,0 santimetrni tashkil etgan. Ponasimon qurol kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan.

Keskich qurollar – 2 dona. Mazkur tipdagi qurollar tekis yon qirraga ega bo'lgan uchirindidan yasalgan. Ish maydoniga mayda izli ezish yo'li orqali ishlov berilgan. Ular kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan tayyorlangan.

Shuningdek, Sazog'on–3 makoni tadqiqoti jarayonida boshqa guruhdagi tosh qurollari ham qo'lga kiritilgan:

Qayroqtosh qurollari – 20 dona (4, 5-rasmlar). Asl, butun holatdagi qayroqtosh qurollari nisbatan kam sonli, ko'pchilik miqdorni esa qayroqtosh bo'laklari tashkil etadi. (18 dona). Butun qayroqtosh qurollari suyri yoki to'g'ri burchakli shaklga ega. Ish maydonlari nisbatan qo'pol kertuv usulida tekislanib, o'tkirlangan, lekin turmushda ko'p ishlatilganidan ish qirralarida yemirilganligi belgisi ko'zga tashlanadi. Qayroqtoshlar ustki po'stlog'i ko'proq saqlanib qolgan. Aksariyati to'q kulrangli chaqmoqtoshli-slanesdan yasalgan.

Yorg'uchoqlar – 3 dona. Asosan yupqa o'lchamli slanesli tosh plitalardan yasalgan. Ish maydon tekis va o'rta qismida chuqurlashgan ko'rinishga ega. Bu chuqurlashgan ish maydoni donni ezish jarayonida hosil bo'lgan.

**Jadval 1. Sazog'on 3 neolit yodgorligi tosh buyumlari tipologiyasi (tip list)**

<b>Tosh buyumlar tiplari</b>	
Ishlov berilmagan uchirindilar	30
Ishlov berilmagan paraqalar:	10
Shu jumladan mikroparaqalar	2
Tosh o'zaklari:	5
Prizmasimon	3
Konussimon	1
Mikrotosh o'zagi	1
Toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan tosh buyumlari	19
<b>Jami</b>	<b>64</b>
<b>Payraqalardan yasalgan qurollar:</b>	<b>38</b>
Yelka qismining ikkala yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan paraqalar	6
<i>Shu jumladan, mikroparaqalar</i>	3
Yelka qismining bir yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan paraqalar	15
<i>Shu jumladan, mikroparaqalar</i>	9
Astar qismining ikkala yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan paraqalar	-
<i>Shu jumladan, mikroparaqalar</i>	-
Astar qismining bir yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan paraqalar	5
<i>Shu jumladan, mikroparaqalar</i>	-
Yon tomonlari bo'yicha qarama-qarshi holatda ishlov berilgan paraqalar	1
Yon tomonlari to'balanib o'tmaslangan holatda ishlov berilgan paraqalar	-
Uch kesim qismi bo'yicha ishlov berilgan paraqalar:	1
<i>Qiyshiq holatda</i>	-
<i>To'g'ri holatda</i>	1
Geometrik shakldagi qurollar: trapetsiya	-
Yon qirralari bo'yicha ishlov berilgan chuqurchalariga ega bo'lgan paraqalar	3
<i>Shu jumladan, mikroparaqalar</i>	1
Paraqaning ustki kesim qismida ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar	3
Teshgich qurollar	-
Qovurg'asimon paraqalar	2
Arxaik ko'rinishga ega bo'lgan enli paraqalar	2
<b>Jami</b>	<b>38</b>
<b>Uchirindilardan yasalgan qurollar:</b>	<b>72</b>
Turli ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar:	5
<i>Jumladan, tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlar; disksimon qirg'ichlar, tirnoqsimon mikroqirg'ichlar</i>	-
Turli yon tomonlari bo'yicha ish maydonlariga ega bo'lgan uchirindilar	18
Ponasimon qurollar	1
Randasimon qurollar	-
Ikki yon tomoni bo'yicha ishlov berilgan o'q-yoy uchlari	-
Teshkich qurollar	-
Keskich qurollar	2
Qayroqtosh qurollari bo'laklari	20
Plitkasimon qirg'ich qurollari	-
Yorg'uchoqlar	3
Ikki yuz qismi silliqanib ish maydoni hosil qilingan bolta quroli	-
Mikro chopper quroli	-
Yirik hajmli ushatkich quroli, bo'laklari	-
Kvars	23
<b>Jami</b>	<b>72</b>

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida Sazog'on-3 makoni tosh buyumlari tipologik tahlili natijalarini quyidagicha keltirish mumkin: tosh buyumlarning 6 ta guruhi aniqlandi. Jumladan, toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan tosh buyumlar xususan, tosh o'zaklari 3 ta tipga; paraqadan

yasalgan qurollar guruhi 9 ta tipga; uchirindidan yasalgan qurollar guruhi 5 ta tipga; boshqa guruh artefaktlari esa 3 ta tipga ajratildi.

Demak, tosh qurollarining tipologik tahlili natijalari Sazog'on-3 makonining tosh industriyasi uchirindili-paraqali industriya ekanligini ko'rsatib, industriyaning paraqali qismida mikroparaqalar borligi hamda qayroqtoshli elementlar kuzatilishi faktini berdi (1-jadval).

*Natijalar.* Jadvaldagi ma'lumotlar Sazog'on-3 makoni tosh industriyasi asosiy qurollari qolgan Sazog'on yodgorliklari tosh industriyasi qurollari bilan tipologik jihatdan o'xshashligini ko'rsatdi. Yodgorlik tosh industriyasi tosh buyumlari 6 ta guruhi bo'yicha-tosh o'zaklari va toshni yo'nish bilan bog'liq bo'lgan predmetlar, ishlov berilmagan uchirindilar, ishlov berilmagan paraqalar salmog'i kamaygan, uchirindilardan yasalgan qurollarning salmog'i oshganligini kuzatish imkonini berdi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, uchirindilardan yasalgan qurollar salmog'i (ishlov berilgan qurollar soniga nisbatan) bo'yicha Sazog'on 2 makoniga yaqin bo'lib chiqdi. Paraqa qurollari esa, shu nisbatda Jangal 1, Tepaqul 3 makonlariga nisbatan salmog'i kam bo'lib, Sazog'on 2 makoniga yaqinlashdi. Paraqa buyumlar ichida ishlov berilmagan mikroparaqalar salmog'i kamaygan. Payraqadan yasalgan qirg'ichlar, qayroqtoshlar, keskich qurollar, tik ish maydoniga ega bo'lgan uchirindilardan yasalgan qirg'ichlar, ponasimon qurollar mavjudligi va ularga qo'llanilgan texnologik uslublar makon tosh industriyasining o'ziga xos xususiyatlaridan birini tashkil etib, makon tosh industriyasining O'rta Osiyo tog' mintaqasi mezolit-neolit jamoalari moddiy madaniyati tizimiga kirishidan dalolat beradi. Makondan 3 dona yorg'uchoq toshlari, donni ezishda qo'llanilgan o'rtacha o'lchamdagi tosh buyumlarning uchratilgani Qoratepa mintaqasida yashagan neolit jamoalarining xo'jalik mashg'ulotlari to'g'risida xulosalarga kelish imkonini beradi.

*Munozara.* Sazog'on-3 makoni tosh industriyasida prizmasimon ko'rinishli tosh o'zaklari, mikrotosh o'zaklari, yelka va astar qismining bir yoki ikki yon qirradi bo'yicha ishlov berilgan paraqa qurollari, yon qirradi to'mtoqlanib o'tmaslangan holatda ishlov berilgan paraqalar, yon qirralarida ishlov berilgan chuqurchalarga ega bo'lgan paraqa qurollari, ponasimon qurollar, ustki kesim qismida yoysimon ko'rinishli ish maydoniga ega bo'lgan uchirmadan, paraqadan yasalgan qirg'ich qurollari, qovurg'asimon paraqalar, arxaik ko'rinishga ega bo'lgan enli payraqa qurollarining uchratilishi bevosita tosh qurollarining tarixiy davrlar ketma-ketligida oldingi tarixiy davrlar tosh qurollarining evolyutsion tarzda, an'anaviy, tadrijiy davom etib kelganligini bildiradi (6-rasm). Bu tosh qurollari o'z shakli, yasalishi texnikasi, ishlov berilishi usullari bo'yicha O'rta Osiyo tog' mintaqasi mezolit va hatto so'nggi paleolit jamoalariga tegishli yodgorliklar tosh qurollariga o'xshash. Buni tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ich qurollar (vysokiye skrebki), ponasimon qurollar to'g'risida ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan asoslash mumkin. Xususan, A. P. Okladnikov ma'lumoticha, Turkmaniston hududi Krasnovodsk yaqinidagi yuqori paleolit chaqmoqtosh ustaxonasi, Jabal g'or makoni 5a, 7, 8 – madaniy qatlamlarida bu turdagi qirg'ich qurollar uchraydi (Okladnikov 1953: 52). G. Ye. Markov ham o'z tadqiqotlarida Dam-Dam-Chashma 1 makoni 3,5 madaniy qatlamlari, Dam-Dam-Chashma 2 makoni 4 – (yuqori) madaniy qatlamida ushbu turdagi qurollar uchrashi to'g'risida ma'lumot keltiradi (Markov 1966: 148, 184, 190, 195). N.O'.Xolmatovlar tadqiqotida Quyi Zarafshon vohasi Chorbaqti mezolit makonlari moddiy madaniyatida bu turdagi qirg'ichlar uchrashi haqida ma'lumotlar mavjud (Xolmatov 2007: 27–44). M. Djuraqulov ma'lumoticha, Samarqand yuqori paleolit makoni tosh qurollari to'plamida ushbu turdagi qirg'ichlar salmoqli tarzda uchraydi (Djurakulov 1987: 30, 31, 76, 85, 122). O'. Islomov Obishir madaniyati tosh industriyasida uchirindidan yasalgan tik ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ichlarni alohida tip sifatida ajragan (Islamov 1980: 57, 88, 89, 104, 119.). V. A. Ranov o'z tadqiqotida Tojikiston hududi tosh davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli bo'lgan Oshxona, Shugnov makoni 1-madaniy gorizonti, Tutqovul makoni 3-madaniy gorizontida mazkur tipdagi qirg'ichlar mavjudligi borasida ma'lumot beradi (Ranov 1961: 23, 29; 1973: 54, 58). Bu ma'lumotlar soha mutaxassislarining ushbu turdagi qirg'ichlar neolit davri jamoalariga nisbatan mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatiga tegishli va O'rta Osiyo

pasttekislik mintaqasi mezolit jamoalari moddiy madaniyatiga nisbatan tog' mintaqasi jamoalari moddiy madaniyatiga oid ekanligi borasidagi yondoshuvlarini tasdiqlaydi (Xolmatov 2020: 93–95).

Sazog'on-3 makonidan topilgan paraqa va mikroparaqa quollarining O'zbekiston miqyosida neolit davri yodgorliklari tosh industriyasida tutgan o'rni masala-siga e'tibor qaratsak qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Sazog'on-3 makoni mazkur quollari o'z shakli va ishlov berilishi usullari, yasaliş xom ashyosi bo'yicha Sazog'on 1, 2, Jangal 1, Lolab, Ochilg'or makoni yuqori madaniy qatlami paraqa quollariga aynan o'xshash. Shuningdek, yodgorlikning astar tomonining bir yoki ikki qirrası bo'yicha ishlov berilgan paraqa quollari, yon tomonlari yelka qismidan to'mtoqlangan holda ishlov berilgan, uch kesim qismi bo'yicha to'g'ri yoki qiyshiq holatda ishlov berilgan paraqa quollari, paraqadan yasalgan yoysimon ko'rinishdagi ish maydoniga ega bo'lgan qirg'ich quollari, Quyi Zarafshon vohasi (Uchashi 131, Oyoqog'itma, Chorbaqti, Darbozaqir 1, 2, Tuzkon makonlari), Qizilqum (Lavlakan, Mingbuloq, Beshbuloq, Qoraqata) hududi Kaltaminor jamoalari paraqa va mikroparaqa quollariga o'z shakli, ishlov berilishi usullari bilan o'xshash (Vinogradov 1981: 64–78).

*Xulosa.* 1. Sazog'on-3 makoni tosh industriyasining o'ziga xos xususiyatlari, moddiy manbalari, xususan, tosh quollari, sopol idishlari hamda yodgorlik geologik joylanishi holati, stratigrafik ma'lumotlari, madaniy qatlami strukturaviy tuzilmalari jihatidan Sazog'on madaniyati yodgorliklari jumlasiga kiradi.

2. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida Sazog'on-3 makonini Sazog'on madaniyati yodgorliklari xronologik jihatdan ketma-ketligi tizimida – ilk (mil.avv. VIII–VII–V ming yillik boshlari), o'rta (mil.avv. V ming yillik boshlari – IVming yillik 1-yarmi) va so'nggi (mil.avv. IV ming yillik o'rtalari – III ming yillik boshlari) uning o'rta bosqichiga tegishli deb hisoblash mumkin.

3. Sazog'on-3 makoni tosh industriyasida Sazog'on 1, Ochilg'or makoni pastki madaniy qatlami, Chorbaqti mezolit yodgorliklari hamda Samarqand makoni moddiy madaniyatiga xos tosh quollarini yasash texnologiyasi an'analarini kuzatish imkoni bo'ldi. Bu tosh quollarini tarixiy taraqqiyot bosqichlari borasida evalyutsiyasi hamda eng muhimi shu asosda genetik aloqalar bo'lganligini bilishimizda ahamiyatlidir. Bu ma'lumotlar O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri mezolit-neolit jamoalari madaniyati kelib chiqishi ildizlari vorisiylik asosida, avtoxton tarzda bo'lganligi masalasini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi.

4. Sazog'on-3 makoni tadqiqotida qo'lga kiritilgan arxeologik ashyolar, ma'lumotlar O'rta Zarafshon vohasi neolit davri jamoalari moddiy-madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, jamoalar turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo'jalik mashg'ulotlari, manaviy madaniyati, o'zaro qo'ni-qo'shnicilik madaniy aloqalari, genezisi kabi masalalarni yoritishda birlamchi manba hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*Виноградов А. В.* Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. Т. 13. М.: Наука, 1981. 172 с.

*Гулямов Я. Г., Исламов У. И., Аскарлов А. А.* Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент: Фан, 1966. 252 с.

*Джусуракулов М. Д.* Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент: Фан, 1987. 174 с.

*Джусуракулов М. Д., Холматов Н. У.* Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Ташкент: Фан, 1991. 123 с.

*Исламов У. И.* Обиширская культура. Ташкент: Фан, 1980. 148 с.

*Лев Д. Н.* Итоги работы археологического отряда Самаркандского госуниверситета имени А. Навои в 1966 году // Материалы по истории и археологии Узбекистана. Труды СамГУ. Вып. 218. Самарканд: изд. СамГУ, 1972. С. 3–67.

- Марков Г. Е. Грот Дам-Дам-Чашма-2 в Восточном Прикаспии // Советская археология. №2. М.: Наука, 1966. С. 104–125.
- Марков Г. Е. Памятники первобытности в Восточном Прикаспии – грот Дам-Дам-Чешме-1 // Вестник МГУ. Серия 8. История 3. М.: изд. МГУ, 1981. С. 41–55.
- Окладников А. П. Древнейшие археологические памятники Краснодарского полуострова // ТЮ-ТАКЭ. Ашхабад: изд. АН ТССР, 1953. Т. 2. С. 73–104.
- Окладников А. П. Пещера Джебел – памятник древней культуры прикаспийских племен // ТЮ-ТАКЭ. Ашхабад: изд-во АН ТССР, 1956. Т. 7. С. 11–220.
- Ранов В. А. Изучение памятников каменного века на Восточном Памире в 1958 г. // Археологические работы в Таджикистане. Вып. 6 (1958 г.). Душанбе: Даниш, 1961. С. 31–35.
- Ранов В. А. Шугноу-многослойная палеолитическая стоянка в верховьях р. Яхсу // АРТ. Вып. 10. М.: Наука, 1973. С. 42–61.
- Ранов В. А., Коробкова Г. Ф. Туткаул многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане // СА, № 2. М.: Наука, 1971. С. 133–147.
- Холматов Н. Ў. Олмабулок макони (Ўрта Зарафшон воҳаси) // Тарих ва хотира (илмий мақолалар ва хотиралар тўплами). Самарқанд, 2007. 27–32б.
- Холматов Н. Ў. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. Ташкент: Фан, 2007. 203 с.
- Холматов Н. Ў. Сазогон маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида тутган ўрни. Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. 383 б.

#### REFERENCES:

- Vinogradov A. V. 1981. *Drevnie okhotniki rybolovy Sredneaziatskogo mezhdurech'ya (Ancient hunters and fishermen of the Central Asian interfluve)*. In *Trudy Khorezmskoj arkheologo-ethnograficheskoy ehkspeditsii (Proceedings of the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition)*. Vol. XIII. Moscow: Nauka Publ., 172. (In Russian).
- Gulyamov Ya. G., Islamov U. I., Askarov A. A. 1966. *Pervobytnaya kul'tura i vozniknovenie oroshaemogo zemledeliya v nizov'yakh Zarafshana (Primitive culture and the emergence of irrigated agriculture in the lower reaches of the Zarafshan)*. Tashkent: FAN Publ., 252. (In Russian).
- Dzhurakulov M. D. 1987. *Samarkandskaya stoyanka i problemy verkhnego paleolita v Srednej Azii (Samarkand site and problems of the Upper Paleolithic in Central Asia)*. Tashkent: FAN Publ., 174. (In Russian).
- Dzhurakulov M. D., Kholmatorov N. U. 1981. *Mezolit i neolit Srednego Zarafshana (Mesolithic and Neolithic Middle Zarafshan)*. Tashkent: FAN Publ., 123 (In Russian).
- Islamov U. I. 1980. *Obishirskaya kul'tura (Obyshchyra culture)*. Tashkent: FAN Publ., 148 (In Russian).
- Lev D. N. 1972. *Itogi raboty arkheologicheskogo otryada Samarkandskogo gosuniversiteta imeni A.Navoi v 1966 godu (The results of the work of the archaeological team of Samarkand State University named after A. Navoi in 1966)*. In *Materialy po istorii i arkheologii Uzbekistana. Trudy SamGU, Issue 218*. Samarkand: Samarkand State University Publ., 3-67. (In Russian).
- Markov G. E. 1966. *Grot Dam-Dam-Chashma-2 v Vostochnom Prikaspii (Grotto Dam-Dam-Chashma-2 in the Eastern Caspian)*. In *Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. No 2. Moscow: Nauka Publ., 104-125. (In Russian).
- Markov G. E. 1981. *Pamyatniki pervobytnosti v Vostochnom Prikaspii - grot Dam-Dam-Cheshme-1 (Monuments of primitiveness in the Eastern Caspian Sea – grotto Dam-Dam-Cheshme-1)*. In *Bulletin of the Moscow State University. Seriya 8, Istoriya 3*. Moscow: Moskva State University Publ., 41–55. (In Russian).
- Okladnikov A. P. 1953. *Drevnejshie pamyatniki Krasnovodskogo poluostrova (The oldest monuments of the Krasnovodsk Peninsula)*. In *Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoy arkheologo-ethnograficheskoy kompleksnoj ehkspeditsii (Proceedings of the South-Turkmenistan archaeological and ethnographic complex expedition)*. T. 2. Ashkhabad: Akademiya nauk Turkmenistana Publ., 73–104. (In Russian).

Okladnikov A. P. 1956. *Peshhera Dzhebel – pamyatnik drevnej kul'tury prikaspijskikh plemen (Jebel cave – a monument of the ancient culture of the Caspian tribes)*. In *Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoy arkheologo-ehnologicheskoy kompleksnoj ehkspeditsii (Proceedings of the South-Turkmenistan archaeological and ethnographic complex expedition)*. T. 7. Ashkhabad: Akademiya nauk Turkmenistana Publ., 11–220. (In Russian).

Ranov V. A. 1961. *Izuchenie pamyatnikov kamennogo veka na Vostochnom Pamire v 1958 g (Study of Stone Age sites in the Eastern Pamirs in 1958)*. In *Arkheologicheskie raboty v Tadjikistane (Archaeological work in Tajikistan)*. Vol. 6 (1958 g.). Dushanbe, 31–35. (In Russian).

Ranov V. A. 1973. *Shugnou-mnogoslojnaya paleoliticheskaya stoyanka v verkhov'yakh r. Yakhsu (Shugnu is a multi-layer Paleolithic site in the upper reaches of the river. Yakhsu)*. In *Arkheologicheskie raboty v Tadjikistane (Archaeological work in Tajikistan)*. Issue.10. Moscow: Nauka Publ., 42–61. (In Russian).

Ranov V. A., Korobkova G. F. 1971. *Tutkaul mnogoslojnoe poselenie gissarskoj kul'tury v Yuzhnom Tadjikistane (Tutkaul is a multi-layered settlement of the Hissar culture in South Tajikistan)*. In *Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. No 2. Moscow: Nauka Publ., 133–147. (In Russian).

